

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruhsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

_____A. Pardaev
“ _____ ” _____ 2019 yil

5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun

**“TOLERANTLIK G'OYASI VA UNING YOSHLAR
TARBIYASIDAGI O'RNI”**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: I. Хосилмуродов

Ilmiy rahbar: B.M. Ochilova

Ishni himoyaga tavsiya etaman B.M. Ochilova

BMI Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari
kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror № ____,
____. 2019 yil) himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri

M. Xoshimxonov

Jizzax-2019

BMI A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Institutining Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida bajarilgan.

Taqrizchilar:

E.Mallayeva. Жиззах ДПИ Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim kafedrasi o’qituvchisi.

D. Eshonqulova. Жиззах Sayiljoyi akademik litsey o’qituvchisi .

Himoya 2019-yilning _____soat____da A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Tarix fakultetida davlat attestatsiya komissiyasining bakalavr darajasini olish uchun yig’ilishida o’tkaziladi. Manzil: Tarix fakulteti 406-xona.

Ish bilan A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Axborot Resurs markazida tanishish mumkin (manzil: Jizzax shahri Sharof Rashidov shoh ko’chasi, 54).

MUNDARIJA

KIRISH.....3-7

I.BOB. TOLERANTLIK G'OYASINING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI

1.1. Tolerantlik g'oyasining tarixiy ildizlari.....8-18

1.2. Tolerantlik g'oyasi umuminsoniy muammo sifatida.....19-29

1.3. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida tolerantlik muhiti
va tamoillari.....30-39

II.BOB. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASH OMILLARI.

2.1. Tolerantlikni ta'minlashda milliy-madaniy markazlarning
regulyativ funk.....40-53

2.2. Yoshlar dunyoqarashida diniy bag'rikenglikni shakllantirish
asoslari va usullari.....54-64

XULOSA.....65-70

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....76-80

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Globallashuv jarayonida insoniyat hamjamiyati oldida paydo bo'layotgan ko'plab muammolar orasida millatlararo totuvlik va tolerantlik madaniyati eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi g'oyalarda va xulosalarda ham demokratiya qadriyatlari va qoidalarini chuqur qaror toptirish, uning konsolidatsiyalashuviga erishish bilan bog'liq konkret vazifalar, siyosiy qarorlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida o'z ifodasini topmoqda. "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustaxkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi"¹.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi, shu yurtda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tinch-totuv va hamjihatlikda yashashiga, ularda vatanparvarlik, o'zaro bir-biriga va o'zgalarga hurmat ruhini shakllantirishga va eng asosiysi yosh avlod ongi va qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat, bag'rikenglik tuyg'ularini yuksaltirishga qaratilgan.

Xalq bilan muloqot natijasi o'laroq 2017-yil 7-fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni² qabul

¹Sh. Mirziyoyev. Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan ushrashuvda so'zlagan nutqi. / Toshkent. 24. 01. 2017. (газетами каердан олган бўлсангиз ўша манбани ёзинг)
²"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" qonun 2017-yil 7-fevral

qilindi. Unga ko'ra 2017-2021 yillarga mo'ljallangan mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Ular:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud- huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Ta'kidlash kerakki, "Tolerantlik g'oyasi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi mazmuniga mos keladi. Mazkur mavzu orqali mamlakatimizda ijtimoiy barqarotlik va xavfsizlikni ta'minlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni kuchaytirish hamda mazkur yo'nalishda chuqur o'ylangan, samarali ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish ilmiy tadqiq qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda mavzuning ilmiyligi va o'ziga xosligi hamda dolzarbligi namoyon bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bu masalada avvalo shuni aytish lozimki, jamiyat hayotini ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, jumladan, tolerantlik, millatlararo va dinlararo bag'rikenglikning mazmun-mohiyati, ularning jamiyat hayoti uchun zarur ekanligi, tolerantlikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda ushbu g'oyani yosh avlodda shakllantirish masalalari haqidagi har tomonlama ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruzalarida³ aks etgan.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" nomli ma'ruzasi. <http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/8983-qonun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-ta'minlash-yurt-taraqqiyoti-va-khal-farovonligining-garovi> 08.12.2016; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning

Mualliflar o'z qarashlarida ushbu masalalarga milliy mentalitetimiz hamda sharqona tarbiya tamoillaridan kelib chiqib yondashgan hamda g'oyaviy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalashda tolerantlikning ahamiyatiga beqiyos darajada urg'u bergan.

Mamlakatimizda albatta mustaqillik yillarida ijtimoiy barqarorlik va tolerantlik masalasida jiddiy ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligini ta'kidlash kerak. Bu borada M. Quronov, N.Q.Jo'raev, M. Qirg'izboyev, I. Karimov, H.Tojiyev, J.B.Baxronov, X.Ziyoyev, S.Jo'raev, X.T.Odliqoriyev, D.X.Razzoqov, SH.G'oyibnazarov va boshqa shu kabi olimlarning qator ilmiy asarlari va maqolalarini e'tirof etish lozim.

Mazkur olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari ijtimoiy barqarorlik hamda tolerantlikning ayrim jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularda muammoni tadqiq etish falsafa, tarix, siyosatshunoslik va pedagogika kabi fanlar hamda ularning kesishgan yo'nalishlari bilan ko'proq bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

БМИ нинг объекти – tolerantlik g'oyasining mazmun-mohiyati

БМИнинг предмети – tolerantlik g'oyasi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.

Mavzuni yoritishdan ko'zlangan asosiy maqsad. Jamiyatda bag'rikenglik muhitini ta'minlashda tolerantlik g'oyasining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish hamda uni keng yoshlar ongi va e'tiqodiga singdirishga yo'naltirilgan ilmiy –metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi.

2017 yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning cofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-taqdiri-va-kelazhagi-yo'lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-22-12-2017>; ; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni,xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi; <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-af-o-27-03-2018&month02&year-2018&clear-cache-Y&ELEMENT-CODE-politics>. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.

- tolerantlik tushunchasining mohiyati va vazifalarini o'rganish va tahlil qilish;

- globallashtirish sharoitida O'zbekistonda tolerantlik muhiti va tamoillarini yaratish;

- O'zbekistonda tolerantlikni ta'minlashda Milliy-madaniy markazlarning ro'li va ahamiyatini oshirish;

- tolerantlik g'oyasini keng yoshlar ongi va e'tiqodiga singdirish usullari va vositalarini ishlab chiqish;

- tolerantlik tarbiyasini samarali tashkil etish vositalari va singdirish usullari, metodlari va texnologiyalarining, foydalanish yo'llarining shakli, usul va metodlarini o'rganish va umumlashtirish;

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, tolerantlikni keng yoshlar ongi va e'tiqodiga singdirish usullari to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni olish va sinf hamda darsdan tashqari jarayonlarda ularni turli tadbirlarda komil insonning ma'naviyatini shakllantirishda va ma'rifatini rivojlantirishda ular tasavvurini umuminsoniy meros va umuminsoniy madaniyatga oid qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 78 – sahifa.

I-BOB. TOLERANTLIK G'OYASINING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI

1.1. Bag'rikenglik g'oyasining tarixiy ildizlari

Bizga tarixdan yaxshi ma'lumki, yer yuzida insoniyat paydo bo'lganidan beri 3,5-4 million yil o'tdi. Ana shu davr davomida odamlar inson, shaxs sifatida shakllandi, ularda asta-sekinlik bilan tasavvur, his-tuyg'u, sezgi, idrok kabi tushunchalar bilan bir qatorda ong ham shakllandi va rivojlandi. Endilikda insonlar tabiatga, atrof- muhitga ongli ravishda munosabat bildira boshladilar. Vaqt o'tishi bilan insonlarda mehr-oqibat, o'zaro bir-biriga hurmat tuyg'ulari keng kurtak yoza boshladi va ana shu tuyg'ular vositasida ular bir butun xalq, millat sifatida yagona insoniyat jamoasi- kishilik jamiyatiga birlasha boshladilar. Aynan mana shu davrlardan boshlab ularda ezgulik, tinchlik, do'stlik, Vatanni sevish, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlar o'zligini namoyon qila boshladi. Bugungi kun jamiyati ham ana shu do'stlik, bag'rikenglik g'oyalari asosiga qurilgan desak to'g'ri bo'ladi. Демак, толерантлик тарихий илдизларга эга ҳодиса ҳисобланади.

O'zbek **халқ**ining etik-estetik, axloq va odob, ma'naviy va ma'rifiy, falsafiy qadriyatlarini tizimida tolerantlik g'oyalari eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlantirilgan va o'ziga xos tarzda shakllantirilgan. Tolerantlik tushunchasida inson axloqiga oid sabr-bardoshli bo'lish, hurmat, e'zoz, izzat ko'rsata olish, rahmdillilik, mehru-muruvvat kabi sifatlar an'anaviy hususiyatga ega bo'lgan. Tolerantlikning tarixiy ildizlari eng qadimgi davr «Avesto», «O'rxun-Enasoy bitiklari», «So'g'd yozuvlari» kabi adabiy yodgorliklarda shakllantirilgan va inson odobi, uning ma'naviy-ruhiy aqidalarining zarur talabiga aylangan.

Тарихан ўз шаклланиш жараёнларида толерантлик маънавий ва диний бағрикенглик ғояларига таянган. Толерантлик ва динлар тарихи ўзаро боғлиқ ҳодисалар ҳисобланади. Дунё динлари ўртасидаги тенглик ва ўзаро ҳурмат толерантликсиз ривожлана олмас эди.

Толерантлик диний эътиқодларга бўлган ўз муносабатини анъанавий диний мазҳабларнинг улуғланиши асосига қуради. Шу нуқтаи назардан, ҳар

бир дин таркибида ўзига хос толерантлик тамойилларига асосланган конфессионал қадриятлар тизими шаклланиб келган.

Толерантлик тафаккури инсонларнинг турли иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, мафкуравий, маънавий, рухий муносабатларини уларнинг миллати, ирки, насли-насаби, иқтисодий аҳволи, дини ва эътиқодига қарамасдан мувозанатда сақлаш меъёрларини англатади. Тарихий шаклланишига кўра толерантлик динларга бўлган холис муносабат, динларни бир-бири устидан устун қўймаслик, уларни ажратмаслик, уларни бир-бирига қарши қўймаслик, инсон диний эътиқодига ҳурмат билан қараш, шу билан бирга бошқа дин ғояларини зўравонлик билан сингдиришга уринмаслик, динсизлар, яъни дахрийлар ҳуқуқларининг ҳурмат қилиниши каби моҳиятан зарур бўлган ғояларни ўзичига қамраб олади.

Асли толерантлик инсоният тарихида ўзга дин ва миллатларга нисбатан бағрикенглик ва эҳтиромли муносабатда бўлиш мезони сифатида шаклланиб келган. Чунки толерантлик урф-одат, маданият, қараш ва мафкураларга нисбатан холис муносабат билдиради, дунё ранг-баранглигини тан олади. Ўзбекистонда толерантлик тушунчасининг диний бағрикенглик, тинч-тотувлик ҳамда ҳамжиҳатликда яшаш тамойилларига кўпроқ эътибор берилган.

Аmmo аслида толерантлик тушунчаси жуда кенг тушунча эканлиги Ўрта Осиёда ривожланган тарихий маънавий-маърифий қадриятлар тизимида ўзини тўлароқ намоён этади.

Замонавий толерантлик тушунчаси ўз мазмунига тарихий шаклланиб келган диний ва маърифий бағрикенглик тафаккуринигина эмас, балки ундан кенгроқ булган маънавий, маданий, мафкуравий, гуманитар бағрикенглик тамойилларини ҳам қамраб олади. Шу боис, замонавий жамиятларда толерантлик инсонлар орасидаги турли фарқларга нисбатан ҳурматли ва сабр-бардошли муносабат сифатида талқин қилинади.

Hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida bag'rikenglik, do'stlik aloqalari xalqaro va millatlararo hamjihatlikni, tinchlikni ta'minlashning, siyosiy, iqtosodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustaxkamlashning asosiy vositasiga

aylanmoqda. Bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. XX asr insoniyatga katta ijobiy ijtimoiy- iqtisodiy yutuqlar, ya'ni mustaqil davlatlar sonining ortib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi kabilar bilan birga hal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy va xalqaro kelishmovchiliklarning og'ir yukini ya'ni tolerantlik madaniyatiga zid bo'lgan milliy biqqlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm va fundamentalizm singari illatlarni meros qilib qoldirdi. Biroq, mintaqalararo va mamlakatlararo hamjihatlik, do'stlik va bag'rikenglik munosabatlarining mustaxkamligi bunday illatlarning ildiz otishiga to'sqinlik qila oladi. Shu o'rinda tolerantlik (bag'rikenglik) g'oyasining bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Tolerantlik (bag'rikenglik) so'zi lotincha "*tolerantia*"- sabrtoqat, chidam, bardosh degan ma'nolarni anglatadi. Bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish demakdir⁴.

Tolerantlik tushunchasi insonlarning o'zaro munosabatlarini, ularning millati, irqi, nasl-nasabi, madaniyati va urf-odatlari, iqtisodiy ahvoli, dini va e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me'yorlarini o'zida mujassam etadi. Agar tolerantlik istilohining lingvistik jihatdan mazmunini ko'radigan bo'lsak, u turli tillarda o'ziga xos, shu bilan birga o'zaro o'xshash mazmunlarni bildirib kelgan Tolerance (ingliz tili)- birovlariga nisbatan sabr-bardoshli bo'lishga tayyorlik. Kuan rong (xitoy tili)- boshqalarga nisbatan hurmat va e'zozli munosabatda bo'la olishlik. Tasamul' (arab tili)- kechirimli bo'lish, sabr-bardosh, yumshoqlik, hamdardlik, o'zgalarga yaxshi munosabat, me'yor, dardkashlik. Terpimost (rus tili)- biror narsa yoki kimnidir amallari va so'zlariga bardoshli bo'la olish, biror narsa yoki hodisaning mavjudligiga e'tiroz bildirmaslik, birovlar fikrlarini inobatga olish, sabr va bardoshlilik. Bag'rikenglik (o'zbek tili)- olamdagi narsa

⁴ Социологический литературная лугаты. Москва. 1982, С.

va hodisalarni keng anglash, birovlarini bag'rikenglik bilan qabul qilish, o'zgalarga mehr va muruvvat ko'rsatish, e'zozli, izzatli va hurmatli bo'la olish, dasturxonning har vaqt ochiqligi, mehmondo'stlik, o'zga insonlarni yaratganning ne'mati sifatida qabul qilish, kattaga ham kichikka ham bir xilda yaxshi munosabat ko'rsata olish, atrofdegilar bilan doimiy tavoze'li munosabat, yaxshi qo'shnichilik qila bilish kabi ma'nolarni anglatadi⁵.

Bag'rikenglik tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi, va "tolerare", ya'ni chidamoq, sabr qilmoq ma'nolarini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Bag'rikenglik g'oyasining tarixiy ildizlari dastlabki diniy qarashlar, diniy e'tiqodlar, diniy dunyoqarashning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bag'rikenglik, tinchlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, hurmat, yaxshilik, ezgulik kabi g'oyalarning yuzaga kelishi ham dinning paydo bo'lishi bilan bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Miloddan avvalga 1-mingyillikda O'rta Osiyoda, aniqroq aytadigan bo'lsak, hozirgi Xorazm va unga yaqin hududlarda yer yuzida paydo bo'lgan eng qadimgi dinlardan biri zardushtiylik dini tarqala boshladi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, adolatli bo'lish, faqat ezgu amallar bajarish, kishiga ozor bermaslik, boshqalarni hurmat qilish, mehr-oqibatli bo'lish, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlar dinning bosh g'oyasi atrofida mujassamlashtirilgan. Zardushtiylik dinining bosh g'oyasi "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal"lardan iborat. Inson hayotining ma'nosi esa adolatli turmush tarsi hisoblanadi. Zardushtiylik nafaqat jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga, balki Sharq davlatlarida axloqiy qadriyatlarining keng yoyilishida ham xizmat qilgan. Zardushtiylik dinining g'oyalari keyinchalik

⁵Российская социологическая энциклопедия. – М. Наука 1998. –С.278.

buddaviylik, xristianlik va islom dini ta'limotlarining ishlab chiqilishida muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Bag'rikenglik tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi, va "tolerare", ya'ni chidamoq, sabr qilmoq ma'nolarini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Jahon dinlari ichida eng yoshi hisoblangan islom dini ham o'zining ilk davrlaridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, islom o'zidan avvalgi dinlarni (yahudiylik, xristianlik) e'tirof etibgina qolmasdan, ularning haq- huquqlarini qonun bilan mustaxkamlab qo'ygan. Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'iy nazar ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadi. Har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etmog'i lozim. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi"⁶.

Demak, diniy bag'rikenglik - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi, nafaqat dindorlar balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligi va o'zaro hamjihatligini nazarda tutadi. Butun dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va mustaxkamlashning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Darhaqiqat, islom ilk davrlardanoq o'zidan oldingi dinlarga hech qanday ta'sir o'tkazmadi, turfa mazhab va mafkuralarga qarshi taassub etmadi. Islom birinchi kunlardanoq barcha samoviy dinlar bir manba, bir buloqdan suv ichishini ta'kidlab keladi. Milliy va diniy rang- baranglik hamda e'tiqod

⁶ "Bag'rikenglik Deklaratsiyasi" 1995 yil 16-noyabr BMT 28-sessiyasi. Parij. 1995.

erkinligini qaror toptirish masalalarida Qur'oni karim butunlay bag'rikenglik ruhi bilan sug'orilgan. Umuman olganda, Qur'oni karimning ellikdan ortiq surasidagi yuzdan ortiq oyatlarda musulmonlar mo'min-qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglikka da'vat etilganlar. Demak, islom dini hamisha inson qadr-qimmatiga katta e'tibor bergan va boshqa din vakillarining hayoti, sha'ni, or-nomusi hamda haq-huquqlarini yuksak qadrlagan. Shayx Yusuf Qarzoviyning "Islom inson qalbiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'luvchi va begunoh odamlarga hujum qilishni kechirilmas gunoh deb hisoblovchi sabr-toqat dinidir"⁷, degan fikrlari ham so'zimiz isbotidir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, islom dini azaldan bag'rikeng din sifatida namoyon bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Bu Qur'oni karim va Muhammad alayhissalom hadislariga asoslangan. Rasulluloh hayotlik chog'larida ham, u kishidan keyingi xalifalar ham boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston mamlakati ham ming yillar davomida dinlararo bag'rikenglik o'lkasi sifatida e'tirof etiladi. Haqiqatan ham, o'zbek xalqi o'zining butun tarixi davomida hamma vaqt boshqa xalq, millat va din vakillariga nisbatan o'zining hurmatini namoyon etgan. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Ming yillar maboynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'hronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Diniy bag'rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini o'tagan. U turli e'tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo'lishiga, ularning tashuvchilari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo'l ochgan".⁸ Bu o'z navbatida yurt tinchligi, taraqqiyoti va umuminsoniy madaniyat rivojiga xizmat qilgan.

⁷Shayx Yusuf Qarzoviy

⁸ I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T.: "O'zbekiston".1997.

Ilmiy manbalar O`zbekiston — ilk diniy qarash va tasavvurlar yuzaga kelgan eng qadimiy o`lkalardan biri ekanidan dalolat beradi. O`lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiylik, budizm, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega bo`lgan dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganlar.

VIII asrda Markaziy Osiyoga kirib kelgan islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishishi yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlari islom diniga mahalliy diniy axloq g`oyalari, huquqiy me`yorlar va urf-odatlarini olib kirdilar. I. Karimov bu xususida shunday deganlar: “Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma`naviy uyg`onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g`oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan, tinch-totuv yashagan markaz bo`lib keldi. etnik sabr-toqat, bag`rikenglik hayot bo`ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me`yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an`analarini, shu hududda mavjud bo`lgan davlatchilik an`analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko`p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko`chmanchi xalqlar o`troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko`p asrlar birga yashab kelganlar. So`nggi ikki asr davomida ham o`zlarini «madaniyatli» va «ma`rifatli» hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg`inlar va diniy ta`qiblar bilan o`zlariga dog` tushirgan bir paytda, O`zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo`lib qolmay, balki quvg`in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi».⁹

«Bag`rikenglik» chinakam islomiy fazilat bo`lib, arab tilida «Samaahatul islam» deyiladi. Islomning bag`rikengligini biz hazrati Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shaxsiy namunalarida to`liq va ravshan ko`rishimiz mumkin. Zero, umuman risolatning maqsadi, asosiy vazifasi odamzotning bu dunyodagi hayotini

⁹I. Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`lagasida: xavfsillikka tahdid, barqarorlik hartlari va taraqqiyot kafolatlari” T. “O`zbekiston”. 1997.–B.39-40.

yengillatib berish, oxiratda esa abadiy rohat makonidan o‘rin olishiga yordam berishdir. SHuning uchun Qur’oni Karimning uslubiga qarajak, o‘qiganimizda ba‘zan mo‘minlarning qalbini junbushga keltiruvchi, ularning diqqatlarini muhim bir masalaga qaratuvchi xitob bilan boshlangan oyati karimalarni ko‘p uchratamiz. Bu oyatlarda «Yaa ayyuhallaziy-na aamanuu», «Ey iymon keltirganlar!» degan buyuk xitob bilan boshlanadi. Demak, bu xitob bilan boshlangan oyatlarda aynan mo‘min-musulmonlarga tegishli masalalar kelgan bo‘ladi. Ammo Kalomullohning qolgan barcha oyatlari umuminsoniy, umumbashariy ko‘rsatmalar bo‘lib, ularda dinidan, irqidan, jinsidan qat’i nazar, Bani Odam nazarda tutiladi. Alloh taolo «Isro» surasining 70-oyatida: – «Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik», deydi.

Hadisi shariflarda ham xuddi shunday. «*Kimki...*» deb boshlangan barcha hadislarda mutlaq inson ko‘zda tutiladi. Masalan, «Kimki bir daraxt eksa va undan hayvonmi, qushmi, hasharotmi, odamzotmi esa, uni ekkan odamga savob bo‘ladi», degan mazmundagi hadisni olaylik. Bu erda har qanday inson nazarda tutilgan, uning dini yoki boshqa jihati qayd qilinmagan.

Yana bir hadisi sharifda Payg‘ambarimiz alayhissalom: – «Odamlarga rahm qilmaganga Alloh ham rahm qilmaydi», deganlar. Bu erda ham musulmonlar emas, umuman har bir inson, har qanday odam tushuniladi. Mana shu kabi oyat-hadislarda biz dinimizning bag‘rikengligini ko‘ramiz. Yana bir misol: Payg‘ambar alayhissalomning huzurlariga bir guruh ansoriylar kelib, «Ey Allohning Rasuli! Saqif qabilasi hidoyatga kirmayapti, ularni duoibad qiling» deyishganida u zot alayhissalom «Allohumma, ihdi Saqifa» – «Allohim, Saqifni hidoyat qil», dedilar. Ansoriylar yana «Ey Allohning Rasuli! Ularni duoibad qiling» deyishdi. Biroq Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yana «Allohim! Saqifni hidoyat qilgin» dedilar. Uchinchi marotaba so‘rashganda ham shu duoni qildilar. Mana, bag‘rikenglikning yorqin namunasi. Payg‘ambarimiz alayhissalomning bu muborak duolari ijobat bo‘lib, ana shu Saqif qavmidan keyinchalik buyuk zotlar, ulug‘ ulamolar etishib chiqdi.

Bundan boshqa holatlarda ham, bir guruh sahobalar mushriklarni duoibad qilishlarini so‘rab, u zotga murojaat qilishganda «Men la’natlovchi qilib yuborilmaganman. Men rahmat qilib yuborilganman» deganlar.

«Va maa arsalnaaka illaa rohmatal lil olamiyn» («Ey Muhammad alayhissalom! Biz sizni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik») oyati so‘zimizning dalilidir.

E’tibor qilsak, bu oyatda Alloh taolo «olamlarga» degan. Nima uchun «olamlar» deyilgan? «Olam» deb Alloh subhanahu va taolodan o‘zga hamma narsaga aytiladi. Har bir jins, har bir toifa bir olamdir. SHuning uchun olam so‘zi ko‘plik shaklida ishlatilgan. Insoniyat olami, hayvonot olami, farishtalar olami, jinlar olami vahokazo olamlar bor. Demak, hazrati Payg‘ambar alayhissalom faqat musulmonlarga emas, butun bashariyatga, balki butun olamga, butun borliqqa rahmat o‘laroq yuborilganlar.

U zotning olamlarga qanday rahmat qilib yuborilganlariga bir namuna sifatida Islomning avvalida, to‘qqizinchi hijriy yilda Arab jazirasida, musulmonlar kuchli bir davlatga aylanib bo‘lganidan keyin ham Najron episkopi, nasroniy Abulhorisga yozgan maktublarini o‘qib ko‘raylik.

Tadqiqotchi Jorjiya Islom hukmron bo‘lgan davrdagi boshqa samoviy din ashoblari haqida shunday yozadi: «Hijratning to‘qqizinchi yiliga kelib, Islom dini butun arab jazirasini qamrab olgan bo‘lsa-da, Muhammad alayhissalom yahudiy va nasorolarni o‘z diniga kirishga majbur qilmaganlar, chunki ular ahli kitob edilar. Muhammad alayhissalom o‘zlarining Najron bosh episkopi Abulhorisga yozgan maktublarida Islom kelgach, arab jazirasida nasorolarning ahvoli yaxshilanganini aytib, jumladan, shunday so‘zlarni aytganlar:

«Bismillahir rohmanir rohiym! Allohning Rasuli Muhammaddan Najronning bosh episkopi Abulhorisga va uning barcha ruhoniylari va episkoplariga. Ammo ba’d. Bosh episkopga, uning ruhoniylari va boshqa episkoplarga ma’lum bo‘lsinki, sizlarning cherkovlaringiz, ibodatxonalariningiz qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldiriladi. Sizlar o‘z ibodatlaringizda hur va erkinsiz. Birontangiz o‘z mansabi va maqomidan chetlashtirilmaydi. Diniy marosimlaringizda hech narsa o‘zgartirilmagani

kabi, mazkurlardan ham hech narsa o'zgartirilmaydi. Modomiki, episkoplar ahdga, ya'ni o'zlarining asl injillariga sodiq qolsalar va undagi ta'limotlarga, ya'ni nasroniy dinining ta'limotlariga amal qilsalar, Allohning va Rasulining zimmasida, ya'ni himoyasida bo'ladi. Kim ularni bu narsadan to'ssa, u Allohning va Rasulining dushmani bo'ladi».

Hazrati Payg'ambar alayhissalom yuborgan mazkur risola ahli kitoblar arab jazirasida, ya'ni Arabiston yarimorolida o'z ibodatlarini emin-erkin ado etish huquqiga ega bo'lganiga, hech kim ularni bundan to'sib, tazyiq o'tkazmaganiga dalolat qiladi. Hijratning to'qqizinchi yilida Najron vafdi, ya'ni delegatsiyasi bosh episkopi Abulhoris boshchiligida Madinai Munavvaraga elchilar bo'lib kelishgan. Barchamizga Islom tarixidan ma'lumki, to'qqizinchi hijriy yil «amul mufud» (elchilar yili) deb nomlangan. O'sha yili boshqa din vakillaridan, boshqa mamlakatlardan guruh-guruh bo'lib elchilar kelishgani uchun shunday nomlangan. Abulhoris boshliq elchilar kelib, Nabiy alayhissalomning huzurlariga kirmoqchi bo'lganlarida ular o'zlarining rasmiy diniy liboslarini kiyib, u zotni masjidi nabaviyda ziyorat qilishgan. Ziyorat qilib bo'lganlaridan so'ng u zotdan ibodatlarini ado etish uchun ruxsat so'rashgan. Nabiy alayhissalom ularga Madina masjidida ibodat qilishlari uchun sharoit qilib berganlar. SHunday qilib, ular musulmonlarning masjidida Baytul Maqdisga yo'nalgan holda ibodatlarini ado qilishgan. Bu ulkan tarixiy voqeani, bu buyuk ibratni har bir musulmon, har bir inson bilishi lozim. Payg'ambar alayhissalom ahli kitoblarga hurmat bilan muomala qilar edilar, ayniqsa, nazorolarga alohida ehtirom ko'rsatardilar. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilindiki, Payg'ambar alayhissalom rafiqul a'luga intiqol qilganlarida, ya'ni vafot qilishlaridan oldin bir yahudiyga o'z sovutlarini garovga berib, undan 30 so arpa sotib olgan ekanlar. Oisha onamiz roziyallohu anho mana shu voqeani u zotning bag'rikenglik borasida o'z ummatlariga ko'rsatgan eng katta ta'limlari, deganlar.

Darhaqiqat, Payg'ambar alayhissalomga qarz beradigan sahobalar yo'qmidi? Sahobai kiromlar hazrati Payg'ambar alayhissalom uchun qarz tugul, mol-dunyo tugul jonlarini berishga ham tayyor edilar. Nihoyatda boy-badavlat sahobalar bor edi, butun boshli qo'shinni qurol-yarog', ulov bilan jihozlagan, kiyim-bosh, oziq-ovqat

bilan ta'minlagan sahobalar, hazrati Usmon kabi butun boshli bog'larni, quduqlarni sotib olib, musulmonlarga vaqf qilib bergan sahobalar juda ko'p edi. Lekin nima uchun Payg'ambar alayhissalom g'ayriddandan, yahudiydan ozgina arpani garov evaziga qarzga olyaptilar? Nima uchun zimmalarida qarz qolgan holda rafiqul a'loga intiqol qilyaptilar? Bularning barchasi Azizul Hakim Alloh taoloning cheksiz hikmatidir. Bu Islom ummatiga o'ziga xos ta'limdir, ya'ni boshqa din, boshqa mamlakat, boshqa millat vakillari bilan ham ana shunday muomala qilish durustligini o'rgatishdir. Demak, musulmon odam o'zi yashayotgan jamiyatda har qanday inson bilan qo'ni-qo'shni bo'lib yashashi, savdo-sotiq, oldi-berdi qilishi, ular bilan bordi-keldi qilishi mumkin ekan, do'stona qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yishi joiz ekan. «Ezgulik va taqvo (yo'li)da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat (yo'li)da hamkorlik qilmangiz!..», (Moida surasi 2 – oyati) deb marhamat qilgan.

Islom dini avval boshdanoq insoniyatga asl muruvvatni, dindoshlariga, hatto boshqa din vakillariga ehtirom hamda bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatib kelgan va kelmoqda. Payg'ambar Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) bu borada Islom ummatigagina emas, butun insoniyatga ibrat-namuna bo'ldilar. Ul zot Madinaga hijrat qilganlarida davlat ishlaridagi birinchi amallari o'sha erlik yahudiylar bilan ularning aqidalarini hurmat qilishga asoslangan ahdnoma tuzish bo'ldi. Janob Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilari bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan ham qabul qilar edilar. Bunga quyidagi hadis shariflar asos bo'ladi:1) Hazrati Umar (*roziyallohu anhu*) ning o'g'li Abdullohning bir yahudiy qo'shnisi bor edi. Abdulloh (*roziyallohu anhu*) bir kuni tuya so'ydilar. U kishi xizmatkorlariga «Qo'shnimizni unutma dedi va bir oz vaqt o'tib yana, «YAhudiy qo'shnimizni ututmadingmi?» deb so'radilar. Xizmatkor, taqsir hozir aytib edingiz. Qo'shniga go'sht ajratib qo'ydik, hozir olib chiqib beramiz, dedi. Uch-to'rt daqiqa o'tib Abdulloh (*roziyallohu anhu*) xizmatkorni chaqirib, yana so'radi. SHunda xizmatkor: «Uzr so'rayman, shu paytgacha sizga itoatsizlik qilgan emasman, bilasiz. Keyin ham qilmayman. Nega qo'shni haqida buncha qayg'urasiz?» deb so'radi. SHunda Abdulloh (*roziyallohu anhu*): «Men Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ning: «Jabroil (alayhis salom) menga hamisha

qo'shni haqida vasiyat qilar ediki, men yaqinda qo'shniga ham meros berilsa kerak, deb o'ylardim» deganlarini eshitganman dedilar.2) Mujohid hikoya qiladi: «Bir kuni hazrati Umar (*roziyallohu anhu*) ning o'g'li Abdullohning (*roziyallohu anhu*) uyida edim. O'g'li qo'y so'yib, terisini shilayotgan edi. Abdulloh (*roziyallohu anhu*) «Qo'yni so'yib bo'lganingdan keyin, qo'shnilarga berishni yonimizdagi yahudiy qo'shnidan boshla», deb topshirig'ini bir necha marta takrorladi. Oxiri o'g'li: «Necha marta aytasiz, ota?» deb ajablandi. SHunda Abdulloh (*roziyallohu anhu*) dediki: «Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) qo'shnilik haqqiga shu qadar ko'p o'git berardilarki, biz qo'shnini qo'shniga voris qiladilar shekilli, deb o'ylardik». Demak, ko'nglida adovat bo'lmagan hamda jamiyatda zarari tegmaydigan kishilar bilan yaxshi muomalada bo'lib, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish, shuning bilan birga, tinchlik ishiga rahna soladigan, nafaqat Islom dini, balki boshqa dinlar ravnaqiga ham ziyon etkazish g'arazida bo'lgan kishilarga nisbatan muhosasozlik qilib o'tirmaslik dinimiz talabidir. Dinimizning asosi – Qur'oni karim va sunnati nabaviyada turli ko'rinishdagi o'zaro muomalalarda ham bag'rikenglikka targ'ib qilingan. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ko'plab hadislarida g'ayriddinga ham insoniylik yuzasidan yaxshi muomalada bo'lishga targ'ib qilganlar. Barchamizga ma'lumki, yurtimizga hijriy to'qqizinchi asrdan boshlab hanafiy mazhabi kirib kelgan. Bu ulug' xizmat imom A'zam Abu Hanifaning shogirdlari imom Muhammad bo'lsa, u kishining shogirdlari hazrati imom Abu Hafs Kabirga nasib qilgan. Hozirgi kunda Buxoroda u zotning masjidlari, ziyoratgohlari bor. Buxoroda, umuman O'rta Osiyoda hanafiy mazhabini ilk bor olib kelib, tarqatgan inson ana shu Abu Hafs Kabir rohimahulloh bo'ladilar. Bu zot mujtahid alloma bo'lganlar. SHu zot sabab bo'lib, o'sha davrda bizning diyorumizga hanafiy mazhabi kirib kelgan. Imom A'zam mazhabi boshqa mazhablarga qaraganda o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan ancha erkinlik berishi bilan ham farq qiladi. Bu mazhab ana shunday xalqparvar mazhabdir. Hanafiya ta'limotini kamoliga etkazgan vatandoshlarimiz, Abu Mansur Moturidiy, Abul Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi yuzlab allomalar musulmonlar orasidagi g'oyaviy tarafkashlikka barham berish, Islom dinining, ahli sunna val jamoa yo'lining barqaror bo'lib

qolishiga ulkan hissa qo'shganlar. Xususan, bu zotlar islomiy bag'rikenglik ruhini tarqatish borasida ham katta xizmatlar qilishgan. Diyorimizdan etishib chiqqan allomalarning asarlarida diniy bag'rikenglik bilan bog'lik qadriyatlar targ'ib qilingan g'oyalarni ko'p uchratamiz.

Masalan, buyuk alloma, moturidiya aqidaviy yo'nalishining asoschisi Abu Mansur Moturidiyning «Ta'vilotu ahlis-sunna» degan butun olamga mashhur tafsir kitoblari bor. U zot mazkur tafsirlarida, Haj surasining 40-oyati oyat tafsirida: «CHerkov va sinagogalarni (cherkov – nasroniylarning, sinagoga – yahudiylarning ibodatxonasi) vayron qilish man etiladi. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir» deb yozganlar. SHuning uchun ham o'n to'rt asr musulmonlar hukmron bo'lib yashagan yurtlarda ham cherkov va sinagogalar bugungi kungacha buzilmay saqlanib qolgan. Samarqandlik ulug' faqih, buyuk mufassir Abu Lays Samarqandiy rohimahulloh o'zlarining «Bahrul ulum» degan tafsirlarida ham Mumtahana surasining 8–9–oyatlarini sharhlab, shunday yozganlar:

«Sizlar bilan dinda urush qilmagan o'zga din vakillari bilan bordi-keldi qilinglar, chunki Alloh taolo o'sha oyatlarda «Sizlar bilan din borasida urushmaganlarga yaxshilik qilishingizda, ularga adolat qilishingizda hech qanday monelik yo'q» degan.

Yuqoridagi oyat haqida Hakim At-Termiziyning asarlarida ham nasroniylarning ba'zi toifalari haqida fikr yuritilib, ular Payg'ambar alayhissalom bashorat qilgan najot topgan firqa deb tafsir qilinadi. Moturidiy nasroniylarning qalbi musulmonlarga moyilroq, do'stona munosabatga yaqin ekanini aytganlar. Abul Barakot Nasafiy ham nasroniylarning musulmonlarga ko'ngli yaqinligini aytganlar, ular orasida mutavoze', kamtar zotlar, olim va obidlar bor deb ta'riflab, ilm kimda bo'lishidan qat'i nazar, albatta yaxshilikka etaklashini alohida ta'kidlaganlar.

SHayx Ahmad Yassaviy ham o'z «Hikmat»larida: «Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor. Ko'ngli qattiq dilozordan Xudo bezor» deb yozganlar. Burhoniddin Marg'inoniy hazratlarining «Hidoya» asarida musulmonlar diyorida cherkov va ibodatxonalar buzilib ketgan bo'lsa, ularni yana qayta tiklash joizligini alohida aytib o'tganlar. SHuning uchun faqihlarimiz fiqh kitoblarida bu haqda

alohida to'xtalib, musulmonlar diyorida cherkov yoki boshqa ibodatxonalar buzilib ketgan bo'lsa, o'sha erdagi nasroniylar uni tiklashni talab yoki iltimos qilib chiqsa, ularni qayta tiklash mumkinligi haqida boblar kiritganlar.

Mamlakatimizda e'tiqod erkinligi davlatimizning Asosiy qonunida kafolatlab qo'yildi. Barcha islomiy qadriyatlar – masjid va madrasalarning binolari, nodir tarixiy manbalar, osori atiqalar musulmonlarga qaytarib berildi. Ularning emin-erkin ibodat qilishlari, diniy ta'lim olishlari, diniy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridan bahramand bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

1.1. га синоскалар кам. Диний таҳлилга асосий эътибор бергансиз. Хориж ва республикаимиз олимларининг фикрларини келтиринг, таҳлил қилинг.

1.2.Tolerantlik masalasi umuminsoniy muammo sifatida

1995 yil 16 noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilindi.

YUNESKO tomonidan bag'rikenglikka oid etmishdan ziyod xalqaro hujjatlar, konvensiyalar qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklarga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar aks etgan. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan xislat bag'rikenglik biz uchun an'anaviydir. Shu kundan e'tiboran jahon afkor ommasi 16 noyabrni haryili «Xalqaro bag'rikenglik kuni» sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

1996 ilda BMT Bosh Assambleyasi har yili shu kunni Xalqaro bag'ri kenglik kuni deb nishonlashni taklif qilgan edi. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar o'zaro yaqinlashmoqda. Buhol ular orasidagi ijtimoiy, madaniy va diniy sohalardagi doimiy muloqotlarni taqozo etmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib 1945 yilda BMTustavi «sabr-toqatli bo'lish va jahonda yaxshi qo'shnilar sifatida birgalikda yashash hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash uchun sa'yoharakatlarimizni birlashtirish»ni o'z maqsadlaridan biri deb e'lon qildi. 1981 yil 25 noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 361 55-rezolyutsiyasi din yoki e'tiqodga asoslangan sabr-

toqatsizlik va kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi deklaratsi ya'ni e'lon qildi.

Bosh Assambleya a'zo davlatlarni dinyoki e'tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, dinyoki e'tiqod erkinligi masalalarida bir-birini tushunish, sabr-toqatli va o'zaro hurmat qilishga ko'maklashishga hamda dinyoki e'tiqoddan BMT ustaviga va BMT ning boshqa tegishli hujjatlariga xilof bo'lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi.

Hozirgi dunyoda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liklik, keng miqyosli jamiyatda tolerantlik tamoillarining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'rikenglik tamoili aqidabozlikdan, haqiqatni mutloqlashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi.

Bu tamoilga ko'ra har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa egaligini boshqalar ham tan olmog'I lozim.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'iy nazar bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan. 1995-yil "Xalqaro bag'rikenglik" yili deb e'lon qilindi.

"Bag'rikenglik tamoillari Deklaratsiyasi"dagi "tolerant" so'zi o'zbek tiliga "bag'rikenglik" deb tarjima qilingandan beri u tilimizda o'rnashib qoldi. Rus tilida "терпимость" so'zi boshqachasiga aytganda "снисходительность", ya'ni bag'rikenglik, kengfe'lilik ma'nolarini anglatadi.¹⁰

Tolerantlik tushunchasiga ilmiy iste'molda shu kungacha quyidagicha ta'riflar berilgan. Ular quyidagicha: Tolerantlik bu

¹ "Bag'rikenglik Deklaratsiyasi" 1995 yil 16-noyabr BMT 28-sessiyasi. Parij. 1995.

a) Yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odatlari, hissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv;

b) Noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan hodisalarga bag'rikenglik bilan yondashuv;

c) Noqulay, nomaqbul hissiy omillar ta'siriga ham chidam bilan yondashuv

“Tolerantlik bag'rikenglik asosidagi turli qarashlarni, e'tiqodlarni, jahon madaniyatini hurmat qilish, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish va to'g'ri tushunish, insonni o'zligini namoyon qilish asosidagi individualligining global(jahon miqyosida) ko'rinishidir”.

Falsafiy – madaniy sohada tadqiqotlarga asosan tolerantlik madaniyatining ijobiy namunasi bo'lib, turli-tumanlikni qo'llab-quvvatlovchi, aniqroq aytganda o'zgalarga nisbatan muloqot ochiqligini o'zida mujassamlashtiradi. Tolerantlik madaniyati o'zida sabrlilik, birdamlik, toqatlilik, chidamlilik, bardoshlilik, tinchliksevarlik va o'zga madaniyat, o'zga hayot vakillari bilan kelishuvchanlik tamoillarini faol rivojlanishi va modernizatsiyalashayotgan multimadaniyatli jamiyat hayotiga tadbiq etishni ifodalaydi”.⁶

Ko'rinib turganidek tolerantlik keng ma'noli tushuncha sifatida insonning turli iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining qonun-qoidalarini belgilab beradi. Shu bois insonni zamonaviy jamiyatda yashashga o'rgatish, tabiiy ravishda uni tolerantlikka o'rgatishga barobar keladi. Tolerantlik, davlat va din, din va inson munosabatlari, insonning o'z davlati oldidagi majburiyatlari kabi masalalarda har bir fuqaro aniq va ravshan bilimlarga ega bo'lishi lozimligini o'rtaga qo'yadi. Bag'rikenglik inson va davlat, inson va boshqa insonlar o'rtasidagi rang-barang munosabatlarni tartiblashtirish tamoyillaridan iborat. Shunday ekan, tolerantlik tafakkurini o'quvchi yoshlar dunyoqarashining uzviy bo'g'iniga aylantirish, shuningdek, diniy bag'rikenglik ruhida yoshlarni tarbiyalash dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodda tolerantlik tafakkurini shakllantirishda avvalo xalqimizning boy ma'naviy vqadriyat va an'alariga tayanish muhim ahamiyatga ega bo'lib samarali natijalarni ta'minlashga xizmat

qiladi. Chunki, tolerantlik tushunchalari din, urf-odat va an'ana sifatida xalqimizning hayot tarziga aylangan.

Ilmiy manbalar O'zbekiston — ilk diniy qarash va tasavvurlar yuzaga kelgan eng qadimiy o'lkalardan biri ekanidan dalolat beradi. O'lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiylik, budizm, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega bo'lgan dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganlar.

VIII asrda Markaziy Osiyoga kirib kelgan islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishishi yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlari islom diniga mahalliy diniy axloq g'oyalari, huquqiy me'yorlar va urf-odatlarini olib kirdilar. Prezidentimiz I. Karimov bu xususida shunday deganlar:

“Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan, tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini «madaniyatli» va «ma'rifatli» hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi”¹¹. (13 бетда булар ёзилганку, нега қайтарилмоқда)

¹¹I.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsillikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T.: “O'zbekiston”. 1997. –B.39-40.

“Dono xalqimiz g’araz va hasad bilan yashaydigan, o’z shaxsiy manfaatiga o’zgalar hisobidan erishishni ma’qul ko’radigan, faqat o’zini o’ylaydigan kimsalardan o’zi asrasin deydi. Bag’rikeng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g’am-u tashvishibilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko’taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e’tibor topadilar”¹².

Bir mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millatlar va elatlarorsidagi hamjihatlik, ahillik hamisha o’sha yurt uchun muhim hayotiy omil hisoblanadi. Zero, XXI asrga kelib, ba’zi davlatlarda milliy-etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi og’ir oqibatlarga olib kelayotganini hammamiz yaqqol ko’rib turibmiz. Shu boisdan turli millat va konfessiyalarga mansub millat va xalqlar baqamti yashaydigan davlatlarda bunday tahdidlarni bartaraf etish muhim vazifaga, hatto muammoga aylandi desak xato bo’lmaydi. Yurt tinch-osoyishta bo’lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun, albatta, eng avvalo millatlararo munosabatlarda bag’rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo’ymaslik tamoyillariga amal qilish lozim.

Ming shukurki, bu borada aholisi 33 milliondan ziyod, 130 dan ortiq millat va elat vakillari umrguzaronlik qilayotgan yurtimizga ko’z tegmasin deymiz. Eng muhimi, mustaqillik yillarida Vatanimiz xalqlari ahilligi va hamjihatligi yanada mustaxkamlanib, turli millat vakillarida yagona Vatan tuyg’usi shakllandi.

Shubhasiz, buning bosh omili mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan va Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan davom ettirilayotgan izchil milliy siyosatdir. Ushbu siyosatning maqsadi ham mamlakatimizda yashayotgan turli xil millat va elatlarning tinch va oshoyishta hayot kechirishiga qaratilgan. Mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun siyosiy va iqtisodiy vaziyatni izga solish, millatlararo munosabatlarning barqaror tizimini yaratish, odamlarda ertangi kunga ishonch tuyg’usini uyg’otish zarur.

¹²HoliqovaM. QosimovA. “Ta’lim-tarbiyajarayonidakichikmaktabyoshidagio’quvchilardatolerantliknishakllantirish”.

Zamonaviy shart-sharoitlar o'sib kelayotgan avlodni xilma-xillikka chidamli, boshqa fikrlarni eshita olish va ularni hurmat qilish, bir so'z bilan aytganda millatlararo totuvlik va tolerantlik ruhida tarbiyalashni taqozo etadi. Bu borada Respublika miqyosida juda ko'plab tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlar tashkil etilmoqda va o'tkazilmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab tolerantlik, diniy bag'rikenglik davlatimiz siyosatining asosiy tamoyili sifatida Konstitutsiyamizning 31-moddasida quyidagicha qayd etiladi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l **qo'yilmaydi**".⁸

Bunday huquqiy asoslar va ularning ijrosi yo'nalishida o'tkazilayotgan tadbirlardan ko'zlangan maqsad yoshlarga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash, yoshlarni turli yot g'oya va mafkuralar ta'sirlaridan asrash, ularga bu ishlarining mazmun mohiyatini tushuntirish asosida bunyodkor va buzg'unc¹³hi g'oyalarning farqiga yeta olish ko'nikmalarini hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Xulosa sifatida aytganda, jamiyatda tolerantlik muhitini saqlash uchun noan'anaviy diniy harakat va tashkilotlarning faoliyatiga to'g'ri baho berish, ular qanday ehtiyoj, maqsad, manfaatlarni ifodalashidan kelib chiqishi lozim. G'arb jamiyatlarida keng tarqalib borayotgan funksional savodsizlik, ming yillar davomida shakllangan ma'naviy, axloqiy umuminsoniy qadriyatlarning emirilib borayotganligi, oilaviy, shaxsiy munosabatlarda individualism, egoism kabi salbiy xususiyatlarning kuchayib borayotganligi, turmush kechirishning yaxshilanib borishiga qarama-qarshi ravishda ayrim yoshlarning ma'naviy tubanlashib borayotganligi va h.k salbiy hodisalar ma'lum manfaat va ehtiyojlarni tug'dirishi mumkin. Jismonan nosog'lom yoki og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarda kelajakdan umidsizlik, tushkun kayfiyat ham ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni shakllantiradi. Jamiyatda tolerantlik muhitining ustun

⁸O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2018.

bo'lishi, barqaror bo'lishi shaxsning yetuk va barkamol etib tarbiyalashning va ko'p sonli turli millatlar o'rtasida tinchlik va totuvlik ta'minlanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda tolerantlik madaniyatini belgilovchi fazilatlar deyilganda:

-boshqa turmush tarziga toqatlilik,

-xulq-atvor me'yorlariga chidamlilik, diniy bag'rikenglik va boshqalar tushuniladi.

Demak, yomon so'z aytilsa, insonni qonida o'zgarishlar boshlanadi, genetik jihatdan uning molekulalarida o'zgarish boshlanadi. Ma'lumki, gen avloddan avlodga o'tadi, ko'zimizga ko'rinmasa ham, ota-ona va farzandlar o'rtasida mustahkam aloqa bo'ladi, irsiy ma'lumotlar o'tib turadi. Ayniqsa, bola voyaga etayotgan davrda otonasiga doimiy ravishda bevosita bog'liq bo'ladi, ulardan bevosita ta'sir oladi.

Rossiyalik olimlarning aytishicha, yomon so'zlar aytilganda insonning qonida buzilish boshlanadi, hatto inson o'zini o'zini nobud qilish holatiga tushib qoladi. Darhaqiqat, doimo so'kish, haqorat bilan, kufr so'zlar bilan yashab o'tgan odamni ko'rsangiz, uning hayotida hech bir yaxshilik bo'lmaganini ko'rasiz, chunki u o'zini o'zi barbod qilyapti, yo'q qilyapti, qonini, genini buzyapti. Ammo u nafaqat o'zini buzadi, balki bu buzilish uning etti avlodigacha meros bo'lib qoladi.

Fan-texnika taraqqiyoti **dinimizning** ana shunday buyuk haqiqatlarini kashf qilmoqda, buni g'ayridin olimlar, mutaxassislar ixtirof qilishyapti. Ammo ming afsuski, shu muqaddas dinning ba'zi vakillari nafaqat g'ayriddinlarga, begonalarga, balki o'zining birodariga, millatdoshiga, vatandoshiga hasad, adovat, gina kudurat bilan qaramoqda. Vaholanki, dinimiz insoniyatga bag'rikenglikni o'rgatish uchun yuborilgan.

Dinimizda bag'rikenglikni shunday tushunish lozimki, unda inson tugul hayvonga ham ozor berish yo'q, hayvon tugul nabototga besabab zarar etkazish yo'q. Hatto urushda, inson hayotiga xavf tug'ilib turgan vaziyatda ham bog'-rog'larni bekorga yo'q qilishdan, daraxtlarni behuda kesishdan qaytarilgan.

SHuning uchun ham bugungi murakkab davrda o'z axloqimiz bilan dinimizning beqiyos fazilatlarini namoyon qilish biz musulmonlarning zimmamizda farz bo'lib

turibdi. Bugungi dunyoda Islom haqida, musulmonlar haqida noto'g'ri tushuncha shakllanib qolgan. **Dinimizga, Payg'ambarimiz** sollallohu alayhi vasallamning sha'nlariga tuhmat, ta'na-malomat toshlari otilmoqda. Bu da'volarga raddiya berib, ularning puch, asossiz ekanini isbotlash, dunyo afkor ommasining ko'ziga asl haqiqatni ko'rsatib qo'yish, dinimizning sha'nini oqlash zimmamizdagi eng muhim farz bo'lib turibdi. SHuning o'zi Islomga eng go'zal, eng ta'sirli da'vat bo'ladi. Buyuk ajdodlarimizning boy madaniyat va ma'rifat buloqlaridan bahramand bo'lgan xalqimiz nafaqat millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik balki dinu-diyonat, iymonu-e'tiqod, odobu-axloq, mehru-muruvvat, oila, farzand tarbiyasi, ota-ona hurmati va izzati borasida ham o'ziga xos keng fe'llik, saxovat va mo'tadillik tamoyillariga amal qilib kelmoqda. Mamlakatimiz tarixan ko'p millatli o'lka bo'lganligi tufayli bu zaminda turli-tuman din vakillarining emin-erkin yashashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yurtimizdagi boshqa tashkilotlar qatori diniy jamoalar ham jamiyat taraqqiyotida tobora faol ishtirok etib, xalqimizning ma'naviyati va qadriyatini tiklash, o'zligimizni anglash, eng asosiysi, mustaqilligimizning mustahkam va boqiy bo'lishiga hissalarini qo'shmoqdalar.

1.2. талабга жавоб бермайди

1.3. O'zbekistonda mustaqillik sharoitda tolerantlik muhiti va tamoillari

Ma'lumki, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning jo'g'rofiy nuqtai nazaridan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani turli xalqlarning diniy va ma'naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrda urf-odatlar ham o'zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu esa o'ziga xos millatlararo ham jihatlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Bu haqda **Prezidentimiz** o`zlarining «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida: «Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g`oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo`lib keldi»,¹⁴ deb qayd etganlari ham bejiz emas. Haqiqatan ham O`zbekiston zaminida qadim zamondan islom dini bilan boshqa dinlar yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma`naviy yuksalishiga muayyan hissa qo`shdi.

Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O`zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro`yobga chiqarilmoqda. Bundan tashqari, O`zbekistonda bugungi kunda musulmonlar uchun 2000 dan ziyod masjid va 10 ta o`quv yurtlari faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati hududida esa 200 ortiq masjid¹⁵ rasmiy ro`yxatdan o`tgan.

Mamlakatimiz tarixiga nazar solsak, tolerantlikning umume`tirof etilgan tamoillari sobiq sovet davrida buzilganligini ko`rish mumkin. Unda din va diniy mafkuralarga qarshi shavqatsiz kurash olib borildi, dindarlarga nisbatan salbiy munosabat shakllantirildi. Din bilan bog`liq barcha qadriyatlar umrini yashab bo`lgan deb e`lon qilindi. Natijada tolerantlik muhitiga zid bo`lgan quyidagi oqibatlar kelib chiqdi:

-din pinxonalikka chekindi, dindorlar diniy e`tiqodlariga yashirin ravishda amal qila boshladilar;

-g`arb mamlakatlarida norasmiy islom nomini olgan muqobil diniy tuzilmalar tashkil topdi;

-dinning jamiyatdagi haqiqiy o`rnini bilmaydigan, unga ateistlaracha yondashadigan avlodlar vujudga keldi;

-g`arb madaniyatining mohiyati va ko`rinishlari haqida noto`g`fri tasavvur shakllandi;

¹⁴I.Karimov "O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari".T.: "O`zbekiston". 1997.

¹⁵

-dinga salbiy munosabat unga o'tmishdagi barcha nohaqliklarning asosiy sabablaridan biri, hukmron sinfning quroli deb qarash, din bilan bog'liq o'tmish marosimimizga ham bepisandlik munosabati shakllantirildi.¹⁶

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tolerantlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat qurish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yangi jamiyatni xalqimizning mentalitetiga, milliy-ma'naviy xususiyatlariga mos, ming yillar davomida shakllantirilgan qadriyatlarimizga asoslanibgina qurishimiz mumkin edi. Demak, o'tmish merosini tiklash, milliy-ma'naviy boyliklarimizni o'rganish asosida xalqimiz ma'naviyatini tolerantlik ruhida yangilash zarur edi. Dinga, diniy qadriyatlarga xolisona munosabatni, tolerantlik tafakkurini ham taqazo qilinardi. Yangi jamiyat qurish, o'tmish merosimizdan samarali foydalana olish ko'p jihatdan **dinga munosabatimizdan kelib chiqar edi**. Negaki diniy qadriyatlar yuzlab yillar davomida milliy qadriyatlar bilan shunday chirmashib ketgan va xalqimiz ma'naviyatining tarkibiy qismiga aylangan ediki, ularni aniq, keskin bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bundan tashqari jamiyat va xalq rivojlanishining hozirgi darajasi, imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak edi. Dinga munosabatning xarakteri qurayotgan jamiyatimizning qiyofasini ko'p jihatdan belgilaydi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z asarlari va nutqlarida bu masalaga jiddiy e'tibor berdi, hozirgi davrda dinga munosabatimizning mohiyatini chuqur, har tomonlama asoslab berdi¹.

Islom Karimov bu masalada aniq-ravshan qat'iy ta'kidladi: "Bizning bu masaladagi yo'limiz aniq va qat'iy: din dinning ishini, davlat davlatning ishini qilsin"¹⁷. Bu tamoil O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni belgilashga asos bo'luvchi tamoil edi. Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida dunyoviy jamiyat qurish

¹⁶Z. Munavvarov. Dunyoviy jamiyat va din. / Islom bag'rikenglik va mutaassiblik. -T.,1998. -B.5.

¹⁷I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" -T.: "O'zbekiston". 1997. -B.41-42.

yo'lidan borayotgan mamlakatimizda davlatning din bilan munosablari mazmun-mohiyatini belgilovchi tolerantlikning quyidagi tamoillarini alohida ta'kidlaydi:

-dindorlarning diniy tuyg'usini hurmat qilish;

-diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

-diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

-ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo'llarini izlash zaruriyati;

-dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish;

Bu tamoillarga asoslanilsa tolerantlik muhitini qaror toptirish, din dunyoviy davlat orzusi bilan nafaqat muraso qilishi, balki umummilliy yuksalish yo'lida u bilan samarali hamkorlik qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (31 va 61-moddalari)da dinning jamiyatimizdagi maqomi belgilab berildi. Natijada diniy va dunyoviy mafkuralarning demokratik, zamonaviy jamiyat qurish jarayonida hamkorligi ta'minlandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bu masala o'z echimini topgan bo'lsa-da, biroq, dunyoda tolerantlikka zid bo'lgan, diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi munosabatda hal qilinmagan, ziddiyatli, keskin muammolar ko'p;

birinchidan, diniy mafkuralarning turli-tuman ko'rinishlari mavjud bo'lib, jamiyat kelajagi yo'llarini turlicha tasavvur qiladilar.

ikkinchidan, turli konkret jamiyatlarda din va diniy mafkuralarning mavqei, maqomi, oldiga qo'ygan maqsadlari, jamiyat hayotiga ta'sir darajasi har xil. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar yamoillari ham turlicha. **“Din-siyosatdir”, “Din-xususiy ish emas” kabi tamoillardan kelib chiqadigan mamlakatlar ham topiladi.**

uchinchidan, u yoki bu din tarqalgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, ma'naviy sohalaridagi vazifalari ham har xil bo'lib, diniy mafkuralarning mazmuniga, yo'nalishiga, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

to'rtinchidan, davlat tayanadigan diniy mafkura bilan bir vaqtda muholifatdagi kuchlar diniy mafkurasi o'zaro kurashadi.

beshinchidan, diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi metodologik ahamiyatga ega bo'lgan prinsipial tafovutlar, ziddiyatlar ham borki, ular o'rtasida ma'lum masalalarda ziddiyat, demak o'zaro kurash jarayoni davom etaveradi.

Yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar bir mamlakat doirasida emas. Hozirgi globallashuv sharoitida bu xususiyatlar keng ommalashtirilib, ko'p mamlakatlarda ko'zlangan oqibatlarga olib kelishiga harakat qilinmoqda.

O'zbekiston xolisona tolerantlik tamoillariga asoslanib, dindan milliy, dunyoviy taraqqiyot yo'lida samarali foydalanish borasida qisqa davr maboynida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ulardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz.

-diniy faoliyatning tiklanishi uchun to'la sharoit yaratildi;

-diniy bilim olish, diniy ta'lim berish uchun diniy muassasalar ochildi;

-diniy yoki u bilan bog'liq qadriyatlar(inshootlar, kitoblar va h.k) xalqqa qaytarib berildi. Sovet davrida qatag'on qilingan Qur'on, hadis va boshqa durdona asarlar xalqqa yetkazildi;

-diniy va dunyoviy tamoillarning hamkorligi ta'minlandi;

-boshqa islom davlatlaridagi dindoshlar va boshqa konfessiyalar dindorlar, diniy muassasalar bilan muloqat, hamkorlik yo'lga qo'yildi;

-xalqimizda dinga bo'lgan hurmat, munosabat sovet tuzumi davridagiga nisbatan tubdan o'zgardi va ochiq tus oldi.

Shuni aytish kerakki, yangi jamiyatga o'tish sharoitida din va diniy mafkura shiddat bilan rivojlandi, aholi orasida keng tarqaldi, go'yo "diniy portlash" yuz berdi. Buning sabablaridan ayrimlari:

-bu sovet totalitar tuzumi davrida din va diniy mafkuraga qilingan tajovuzga qarshi reaksiya edi;

-o'tmish ajdodlar yaratgan qadriyatlarni tiklashga bo'lgan kuchli ehtiyojning bir ko'rinishi edi;

-aholi ongida diniy bilimlarning kamligi, ajdodlar merosidan uzoqlashganimiz ham dinga intilishni kuchaytirdi;

-o'tish davrida tabiiy bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklar;

-sovet davrida taqiqlangan, mustaqillik davrida erkin, ochiq faoliyat imkoniyatiga ega bo'lgan diniy tashviqot;

-chet mamlakatlardan turli diniy oqimlarning kirib kelib, har xil yo'llar bilan ayrim kishilarni o'z ta'sir doirasiga olishi;

-biz intilayotgan jamiyatning tanlangan dunyoviy yo'limizning mohiyatini aniq tasavvur qilmaslik;

-hukmron ateistik mafkuradan qutulib, ham o'z milliy mafkuramizni anglab yetmaganimiz sharoitida jamiyatda mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelganligi.

Demokratik jamiyat yo'li kelgusi taraqqiyotning muhim sharti bo'lib, barcha fuqarolarning umumiy maqsadidir. Binobarin diniy va dunyoviy mafkuralar ham shu maqsad atrofida birlashishlari, tolerantlik va milliy mafkuramiz ruhiga mos faoliyatda bo'lishlari kerak. Albatta ko'pgina dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarda ular o'rtasida kurash boradi. Diniy mafkuraga dunyoviylik, halollik, mehr-oqibat, sabr-bardosh, sadoqat kabi yuksak insoniy xislatlarni saqlab qolishda va takomillashtirishda, umuman jamiyat ma'naviyatini sog'lomlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga hodisalarni talqin qilishda, mohiyatini anglashda diniy aqidalardan kelib chiqadi. Biroq, buni diniylik va dunyoviylikka mutlaq qarama-qarshi qo'yishga asos bo'lmaydi. Dunyoviylik reallikka, ilmiy bilimlarga, ratsionalizmga, hayotiy fakt va imkoniyatlarga asoslanadi, olam hodisalarini ob'ektiv xolis tushuntiradi. Diniy mafkura ham reallikni, hayotiy fakt va imkoniyatlarni hisobga oladi. Masalan, jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasida ilmiy, ijtimoiy fanlarga asoslangan axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, falsafiy, siyosiy ta'limotlarni inkor qilish mumkin emas. Ilmiy isbotlangan, mantiqan izchil dunyoviy qarashlarga qarshi kurashish

befoyda ekanligini butun jamiyat tarixi isbotlaydi. Diniy mafkura gumanistik dunyoviy ta'limotlarni qo'llab-quvvatlashi, ularni amalga oshirishda o'z vositalari, usullari bilan yordam berishi ehtiyojga aylanmoqda.

Hozirgi davr odamining dinga munosabatini o'tish davriga yoki avlod e'tiqodida diniylik va dunyoviylikning holati, shakllanish xususiyatlari, omillarini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Dinga munosabatning holati, yosh avlod dunyoqarashida diniylik va dunyoviylikning o'rni sotsiologik tadqiqotlar natijasida o'rganilmoqda.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ladiki, yoshlarning ko'pchiligi dinga dindorlarning faoliyati orqali baho beradilar. Dinni har xil tushunish, turli, hatto qarama-qarshi maqsadlarda ham yagona dinning quroli bo'lib xizmat qilishi dinning ijtimoiy hodisa ekanligini, manfaatdor kuchlarning talqiniga bog'liqligi sir emas. Masalan, islom dinida turli tarixan shakllangan oqimlar, mazhablardan tashqari turli islom siyosiy partiyalari, harakatlari, radikal guruhlar bo'lib, bir-birlariga qarshi kurashadilar, o'z mafkuralarini islom bayrog'i, niqobi ostida targ'ib qiladilar. Bundan tashqari shaxslararo bevosita muloqotlarda ham ayrim tilidan olloh nomi tushmaydigan "dindorlar" o'z hatti-harakatlari bilan (poraxo'rlik, aldamchilik, beburdlik va h.k) hatto dinsiz ateistlardan ham o'tib tushishlari ayrimlar nazarida dinning o'brosini ketkazadi, umuman dinga salbiy munosabat paydo bo'ladi.

O'zbeklarning milliy qadriyatlari tarkibida eng qadimgi davrlardan boshlab har doim tolerantlik, xususan madaniy va diniy bag'rikenglik tushunchalari mavjud bo'lib, ular quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan:

- odamlarga ularning yoshi, millati, irqi, jinsi, moliyaviy ahvoli, nasl-nasabidan qat'i nazar bir xil e'tiborli va izzatli nazarda qarash;
- odamlarga nisbatan bir xilda hurmatli munosabatni inson madaniyati va tarbiyalanganligining muhim belgisi sifatida baholash;
- «komil inson» tushunchasi doirasiga uning keng fe'lligi, o'zgalarga yaxshi munosabat ko'rsata olishi, boshqa dinlar va urf-odatlarini hurmat qilishga tayyorligini kiritish;

- tarixiy jarayonlarda har vaqto'zga madaniyatlar, milliy urf-odatlarining eng yaxshi tomonlarini milliy madaniyatga singdirish (muomala madaniyati, uy tutish, taom tayyorlash, ozodalikka rioya etish, bolalarga munosabat);

- asrlar davomida o'zbeklar madaniyati va muomala urf-odatlari;

- qadriyatlari ta'sirini o'zga madaniyatlarga o'tkazish.

O'zbeklar milliy qadriyatlari tizimida tolerantlik tushunchasi tarkibiga an'anaviy tarzda quyidagi insoniy xislatlar vatafakkur qirralari shakllantirilgan: insof, adolat, hurmat, e'zoz, izzat, sabr, qanoat, mehr, keng fe'llilik, bilimdonlik, madaniyatlar tarixini bilish, boshqa madaniyat va din vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglikni oilaviy tushuncha darajasida amal qilishini ta'minlash, do'stlik, birodarlik, bir-biriga azizlik qadriyatlarini oilaviy munosabatlarga o'tkazish, o'zaro tenglik, hamjihatlik, tinchlik, uni engulug' qadriyatlardan hisoblash, janjal va nizolardan qochish, yaxshi niyatli va amalli bo'lmoq, sodiqlik, insonparvarlik va insonni ardoqlash, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, hurfikrlilik va erk, tafakkurga ishonch, mehr-muruvvat, yaxshilik, ona va ayolga ehtirom, diniy bag'rikenglik, haqgo'ylik, kamtarinlik, tavoze'li bo'lmoq, og'ir-bosiqlik, salmoqlilik, barqarorlik, peshqadamlilik, ilg'orlik, qilgan amallar va niyatlarda pok bo'lmoqlik, e'tiqodga qat'iylik va boshqa insoniy fazilatlar shular jumlasidandir.

(жуда умумий) Сноскалар кам. Худди ҳаммасини ўзингиз “ёзган” дай.

II.BOB. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASH OMILLARI

2.1. Tolerantlikni ta'minlashda milliy-madaniy markazlarning regulyativ funksiyalari

O'tmish va kelajak har bir millat va mamlakat tarixini namoyon etadigan muhim jarayondir. Bu ma'naviy-ijtimoiy jarayonda odamlarning fe'l-atvori, madaniyati, ma'naviyatidan dalolat beradi. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning shakllanishi mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng, har bir millat va elatning qonun oldida haqiqiy tengligini ta'minlash bilan birga ular moddiy, ayniqsa, milliy ma'naviy ehtiyojlarni to'la qondirish erkin mehnat qilishlari, malumot olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida huquqiy asoslab berilgan¹⁸. Ushbu moddada "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida teng" ekanligi ta'kidlangan. Mazkur moddada mustahkamlangan O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyili inson huquqlariga oid barcha xalqaro hujjatlarga, jumladan, O'zbekiston Respublikasi nomidan uning Prezidenti imzolagan "YAngi Evropa uchun Parij Xartiyasi" talablariga to'la mos keladi¹⁹. Mazkur tamoyil mamlakatimizdagi tinchlik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Bu imkoniyatlar O'zbekistonda istiqomat qiladigan turli millat va elatlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida keng va erkin ishtirok etishini ta'minlaydi.

Yurtimizda millatlararo munosabatning shakllanishi va rivojlanishida 1992-yil 24-yanvarda Vazirlar mahkamasi qarori bilan "Baynalmilal Madaniyati Markazi"ning tashkil etilishi juda katta imkoniyatlar yaratdi. Respublika baynalmilal madaniyat

¹⁸ "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" T."O'zbekiston" 2019.- B. 7

¹⁹ A.Ochildiev."Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar".T."O'zbekiston". 2005. -B.43.

markazi bugungi kunda mamlakatimizdagi bir yuz uttiz sakkizta milliy madaniyat markazlariga har tomonlama amaliy yordam berib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va osoyishta yagona oila farzandlaridek ahil va inoq yashashlarida madaniy markazlarning roli beqiyos. Bugungi kunda ular davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, demokratik jamiyat qurish va rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillik yillarida "O'zbekiston-umumiy uyimiz" mavzusida amaliy tadbirlarni hayotga tadbiq etib kelishmoqda. YA'ni, ular o'z tili, madaniyati va san'ati, xalq hunarmandchiligi, urf-odatlarini va an'analarini rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ta'kidlamochimiz. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda anjumanlar va davra suhbatlari, turli festivallar, konsert dasturlari, tanlovlar, ko'rgazmalar, san'at arboblari bilan uchrashuvlar, milliy madaniyat kunlari va dekadalari, milliy an'anaviy bayramlar o'z mohiyatiga ega bo'lgan omillardir. Zero, fuqarolar hamjihatligi, diniy bag'rikenglik, millatlararo va dinlararo munosabatlarning uyg'unligi masalalarini ilmiy tadqiq etish Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyatining muhim yo'nalishlaridandir. Bu borada keyingi davrda mazkur muhim mavzularga bag'ishlangan 20dan ortiq tarixiy-ijtimoiy, adabiy kitoblar nashr etilgani ijobiy hol bo'lib, madaniy markazlar faoliyatini samarasini oshirishga xizmat qilmoqda. Misol uchun 2012 yil 19 yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazining 20 yilligiga bag'ishlab nashr etilgan "Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji"²⁰ kitobining taqdimotini olib ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek "O'zbekistonning boyligi ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz eng yuksak qadriyatimiz jamiyatimizda hukm surayotganchilik, millatlararo do'stlik va hamkorlikdir"²¹. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik

²⁰ Xonozarov Q. "Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi". T. "O'AJBNT". 2001. -B.39.

²¹ Karimov I.A "O'zbekiston o'zistiqlol v taraqqiyot yo'li" T; "O'zbekiston" 1992. -B.70.

jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va ahil yashayotgan bugungi kunda millatlararo va fuqarolar hamjihatligini saqlash va mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. O‘zbekistonning ushbu g‘oyat muhim yo‘nalishda erishayotgan yutuqlari jahonda keng e‘tirof etilib, boshqa mamlakatlarga ibrat sifatida tavsiya qilinmoqda, mahalliy va xorijiy olim hamda tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Har jabhada yuksak marralarni zabt etayotgan yurtimizda mustaqil taraqqiyot yo‘lida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik borasida ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Insonni qadrlagan joy uning uchun aziz va muqaddas. Qrim davlat industrial pedagogika instituti rektori, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan fan arbobi Fayzi Yoqubov “Jahon sivilizatsiyasi yutuqlari haqida gapirganda Germaniya va Amerika texnikaga, Yaponiya va SHvetsiyaning texnologiyaga qo‘shgan hissasi tilga olinadi. Agar bu ro‘yxatni davom ettirib ezgulik, tinchlik, yaqinlarga mehr muhabbat tuyg‘usi borasida gapiradigan bo‘lsak albatta birinchi qatorga O‘zbekistonni yozish zarur. Agar bu bebaho insoniy qadriyatlar masalasida xalqlar va millatlarga baho beriladigan bo‘lsak, shubhasiz, eng yuqori bahoga o‘zbek xalqi va O‘zbekiston sazovor bo‘lar edi”,- deb ta’kidlaydi²². Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo‘nalishi — bu 1994 yili boshlangan birinchi «Xalq ijodiyoti» festivali bo‘ldi²³. Bu festival O‘zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har ikki yilda bir marta o‘tkazishga qaror qilindi. Bu tadbirlarda arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys xalqlarining professional va badiiy havaskorlik to‘garaklari san’atkorlarining chiqishlarini xalq katta qiziqish bilan kutib oldi. Har bir Madaniyat Markazining festivali chinakamiga milliy bayramga, o‘sha millatning tom ma’nodagi porloq istiqbolining kafolatiga, yashab turgan zamin uning uchun begona emasligi, aksincha, u mana shu yurt, mana shu tuproq taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmat qildi.

²² www.hurriyat.uz

²³ O‘zbekiston yangi tarixi.3-tom.T.;” SHarq”2000. -B.241-242.

Jamiyatimizdagi taraqqiyot millat va elatlarning totuvligiga, hamkorligiga, bag'rikenglik tamoyili asosida hayot kechirishiga bog'liqdir. 25 yillik mustaqil rivojlanish yo'lini bosib o'tgan mamlakatimizda millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qati nazar, barcha fuqarolarning manfaatlari taminlanib kelmoqda. Yurtimizda tinchlik, do'stlik va xalqparvarlik muhitining qaror topgani mamlakatimizda olib borilgan islohotlarning samarasini ta'minladi. Buning natijasida O'zbekiston ko'p millatli polietnik davlat sifatida xalqaro maydonda tan olindi. Zero, baynalmilal muhitda yashash, baynalmilal qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash aslida xalqimizga xos jihat. "O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati" asarida Iso Jabborov qayd etishicha, "o'lkamizda xalqlarning baynalmilallashuvi 3-4 ming yillar muqaddam boshlangan va bu jarayon ijtimoiy-tarixiy omillar, xalqaro integratsiya bois hech qachon tugamagan. SHu tariqa o'zbeklar umuminsoniy qadriyatlarga moyil, turli madaniyat va din vakillari bilan hamkorlikda hamda hamjihatlikda yashash odatini shakllantirgan millatga aylangan".

Davlatimiz siyosatining asosini tashkil etgan bosh g'oya – bag'rikenglik g'oyasining hayotga tatbiq etilishi natijasida, respublikadagi barcha millat va elatlarning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Ularning tili va dinini, qadriyat va an'alarini hurmat qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanib, bu borada milliy madaniyat markazlari tashkil etildi. Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tomonidan ushbu markazlarning doimiy, tizimli ravishda moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlanishi bois, O'zbekistonda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishildi. O'z navbatida mazkur tuzilmalarning nufuzli jamoat tashkilotlariga aylanib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lyapmiz. Bu esa shubhasiz demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muvaffaqiyatini belgilab bermoqda. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga etkazishda ijtimoiy hamkorlik munosabatlari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Madaniy markazlar O'zbekistonda huquqiy demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida o'zlarini amaliy va nazariy ishlari bilan yaqinda yordam bermoqda. Hozirgi kunda bizning Farg'ona viloyatida 7ta madaniy markazlar o'z foliyatini olib

bormoqda. Bular: rus, tatar, nemis, koreys, qirg'iz, tojik va yahudiy. Millatlararo munosabatlarning shakllanishida ushbu madaniy markazlarning roli benihoyat katta. Misol uchun O'zbekiston nemislari "Vidergeburt" madaniyat markazi misolida olsak, bu erda Nina Ayhvard boshchiligida markazda ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan nemis tili, kompyuter kurslari, nemis milliy oshxonasi, raqs to'garaklarida ko'plab yoshlar ishtirok etib o'z bilim va tajribalarini oshirmoqdalar.

Taxlillarimiz asoslanib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlarni taraqqiy etishga barcha imkoniyatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yaratildi. Yurtimizda yashayotgan 130 dan ziyod turli millat vakillari "O'zbekiston umumiy uyimiz" mavzusida an'anaga aylangan festivallar o'tkazilishi fikrimiz isbotidir. Bugun kundayurtimizda 138ta madaniy markazlar o'z faoliyatini olib borayotgani millatlararo munosabat shakllanishiga va tinchlikni barqaror bo'lishiga hizmatqilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi xalqimizga har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Bu esa millatidan qat'i nazar har bir fuqaroda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglab etishga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qiladi. Bunda milliy-madaniy markazlarni o'z o'rnibor.

Milliy madaniy markazlar O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlari ekanliklarini o'zlarining samarali va serqirra faoliyatlari bilan isbotladilar. YUqoridan berilgan ko'rsatma asosida emas, balki pastdan, miliy guruhlar ommasi tomonidan ko'rsatilgan tashabbus acoci ishni tashkil etayotganliklarini inobatga olib, 1989 yil O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi qoshida²⁴, ular faoliyatini muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadi Respublika Millatlararo Madaniyat Markazi tashkil qilingan edi. Milliy madaniy markazlar soni va faoliyat turlarini o'sib borayotganini ko'zda tutib, 1992 yil 24 yanvarida Respublika millatlararo madaniy markazi Respublika Millatlaro Baynamilal Madaniy Markazga aylantirildi. Natijada tashkilotlar mustaqil nodavlat muassasaga aylandi.

²⁴ Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. -B.39.

O‘zbekistonda demokratik davlat va fuqaroviy jamiyat talablari darajasida milliy siyosat yurgizishga xizmatqilmoqda.

Mamlakatimizda mavjud turli milliy-madaniy markazlarning millatlararo totuvlik g‘oyasini hayotga joriy etishdagi o‘rni katta. Masalan, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan Rus madaniy markazi millatlararo totuvlik va hamjihatlikni amalga oshirishda hamda milliy madaniyat, tillar, urf-odat va an‘analarni rivojlantirishda faol ishlar olib bormoqda²⁵. Xususan, rus madaniy markazi 1994 yildan buyon millatlararo totuvlikni ta‘minlash borasida faol qatnashib kelmoqda. Mustaqillik kunini, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, “Navro‘z”, Yangi yil, xotin-qizlar, o‘qituvchilar va murabbiylar, xotira va qadrlash kunlarini birgalikda bayram qilishda milliy markaz alohida faollik ko‘rsatmoqda. Boshqa milliy markazlar ham o‘zlarining milliy urf-odat va an‘analarining milliy madaniyatlarini tiklash va rivojlantirish, uning milliy va munosabatlarini bir-biri bilan bog‘lab olib bormoqdalar.

Respublika milliy-madaniy markazlari ko‘plab yo‘nalishlarida millatlararo totuvlikni mustahkamlashga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Bular tarixiy-etnografik, madaniy-ma‘rifiy, musiqali, ilmiy-ommabop, ilmiy, axborot va ijtimoiy-xayriya bilan bog‘liq tadbirlarda aniq ko‘rinadi. Turli madaniy markazlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, madaniy chiqishlar muhim.

Turkiston xalqlari, shu jumladan, o‘zbek va qozoq xalqlari ham yagona Vatan ko‘hna Turon Turkistonning boshidan o‘tkazgan siyosiy vaziyatlaridan qa‘tiy nazar, doimo o‘zaro yaqinlashuv, birlashuv, oddiy aytganda bordi- keldi, oldi-berdi tarafdorlari bo‘lganlar. El boshiga kulfat tushgan eng og‘ir davrlarda ham ular bir-birlarini tark etmay, o‘zaro elkadosh bo‘lib turganlar. SHu ma‘noda, markaz raxbari Abu Nasr Forobiyning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq- fazilatli xalqdir. SHu yo‘sinda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir- birlariga yordam bersalar, butun er yuzi fazilatli bo‘ladi”²⁶.

Xozir Toshkent, Olmaliq, Angren, Oxangaron, Bekobod, Navoiy, Zarafshon, YAngiyo‘l, CHirchiq, Farg‘ona kabi shaharlarni O‘zbekistonda ukrainlar

²⁵ O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996. -B.119.

²⁶ Xolboev.T. Do‘stlikda gap ko‘p. O‘zbekiston millatlararo xamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996. -B.138.

yashaydigan shaharlar sifatida alohida qayd etish mumkin. Dastlabki ukrain madaniy markazlari ularning jam bo'lib yashashidan kelib chiqib paydo bo'lgan. Respublika ukrain madaniy markazi 2001 yil avgustda tuzilgan. Markaz avval tashkil etilgan ukrain madaniy markazlarini birlashtirdi. Toshkentda 1994 yilda tashkil etilgan «Bat'kivhina» markazi ilk ukrain markazi bo'lgandi. Ukrain diasporasining yangi tarixiga ayni o'shanda asos solingandi. «Bat'kivhina» va «Slavutich» O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, «O'zbekiston-Ukraina» do'stlik jamiyati, Kievdagi ukrainlarning Jaxon muvofiqlashtiruvchi Kengashi, Kanadadagi ukrainlar Jahon Kongressi bilan yaqin xamkorlik o'rnatgan. Ukrain madaniy markazlarining faoliyati juda rang-barang. Masalan, Yangiyo'lda ukrain tilida «Nadya» gazetasi chop etiladi. Toshkentda ukrain yakshanba maktabi ishlab turibdi. Bu erda har yili SHEvchenko kunlarini, badiiy jamoalarning «Ukrainskiy spiv» festivalini, ukrain rassomlari ko'rgazmalarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. “Bugun mustaqil O'zbekistonda,-deb yozadi. Ukrain madaniy markazi rahbari, 300 mingdan ziyod ukrainlar yashaydi, ular uchun bu quyoshli, sahovatli va tinch o'lka ikkinchi Vatan bo'lib qoldi. Har birimiz do'stlikni mustahkamlashda, xalqlar o'rtasida o'zaro hamjixatlik va umumiy uyimiz bo'lgan O'zbekistonning gullab yashnashi va porloq, kelajagi uchun o'z hissasini qo'shishga harakatqilamiz”²⁷.

SHuningdek, bugun mustaqil O'zbekistonda 220 mingdan ortiq koreyslar yashaydi. Ular uchun sahovatli va tinch o'lka ikkinchi Vatan bo'lib qoldi²⁸.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi (RBMM) va milliy- madaniy markazlar faoliyati aynan ana shu maqsadga qaratilishi talab etiladi. Bunda ayniqsa ommaviy axborot vositalarining o'rni salmoqli. Jumladan, O'zbekiston televideniesining barcha kanallari, xususan “Axborot”, ”Davr”, ”Assalom, O'zbekiston”, ”Poytaxt”, dasturlari orqali hamda “Birinchi” telekanalning “O'zbekiston-umumiy uyimiz”, ”YAgona bayroq ostida”, ”Yagona oilada”, uyg'ur tilida olib boriladigan “Umid”, qozoq tilida “Jetegen” va “Diydar”, qirg'iz tilidagi

²⁷ Mansurov-KovrigenkoS., KovbasM. “Ukrainsko-uzbekskeistokidrujby” -T.: 2001.

²⁸ Kim I, YUsupova S. Koreyskaya diaspora v Uzbekistane. O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. - T.: Universitet, 1996. –B.155.

“Aychurek”, tojik tilidagi “Mexrangez” va “Ranginkamon”, tatar tilidagi “Biznen meras” ukrain tilidagi “V dobroy xate”, koreys tilidagi “CHinsen” ko‘rsatuvlari yordamida teletomashabinlarga milliy-madaniy markazlar faoliyati hamda millatlararo do‘stlik va hamjihatlik haqida batafsil axborotlar berib borilishi zarur. Bu ishlarni yanada takomillashtirish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazi tomonidan 1999 yilning yanvar oyidan e‘tiboran “Millatlararo hamjihatlik- barqarorlik omili” mavzuida amaliy seminar mashg‘ulotlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda. O‘tgan vaqt mobaynida orttirilgan tajriba va bildirilgan taklif va mulohazalarga binoan seminar endilikda “Hamjixatlik va bag‘rikenglik-barqarorlik omili” mavzuida davom ettirilmoqda va barcha mashg‘ulotlar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mita hamda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkazilmoqda.

Har yillik seminar dasturlari risola tarzda, o‘tkazilgan mashg‘ulotlar materiallari esa to‘plam tarzida chop etilishi yo‘lga qo‘yilgan. Xulosa qilib aytganda, bugun O‘zbekiston Respublikasi ko‘p millatli davlat sifatida millatlararo totuvlik va millatlararo hamjihatlikni milliy istiqlol g‘oyalariga tayangan holda amalga oshirmoqda. Bu jarayonda milliy manfaatlar hisobga olinmoqda, ularni qondirish uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunda milliy istiqlol g‘oyasining umuminsoniy mazmuni alohida ahamiyatga ega. Bu g‘oya orqali turli millatlar umummaqsad yo‘lida birlashib, o‘zlarining salohiyatlarini O‘zbekistonda xuquqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish maqsadlarini amalga oshirishga safarbaretmoqdalar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining Respublikamizning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy ma‘rifiy hayotida faol ishtirok etishi uchun etarlicha sharoit yaratilgan. Mustaqillik yurtimizda milliy munosabatlar sohasida olib borilayotgan siyosat O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so‘zlarida o‘z ifodasini topgan: “Adolatli jamiyatda yashamoqchi ekanmiz, boshqa xalq vakillarining manfaatlarini ham himoya etishimiz, ularga hurmat va etibor ko‘rsatishimiz zarur”¹. Islom

Karimov tashabbusi bilan 1992 yili Respublika baynalmilal madaniyat markazining tashkil etilishi millatlararo totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga qaratilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasi bo'ldi. Ushbu markaz O'zbekistonda faoliyat olib borilayotgan 138 dan ortiq milliy madaniy markazlarni birlashtirib, birgalikda ish olib bormoqda.

Milliy madaniy markazlar o'tmish sovet tuzimidan qolgan unsurlarni sekinastayo'qqilib, o'rni g'amillat va elatlarni urf-odatlarini, ananalarini tiklashga yordamlashmoqda.

Misol uchun Baynalmilal madaniyat markazi tashabbusi bilan 1994 yili o'z faoliyatini boshlagan "Xalq ijodiyoti" festivalining olishi mumkin. Bu festivalni ochilish marosimida shaxsan I.A.Karimov ishtirok etdi hamda jurnalistlarni savollariga javob berib quyidagi fikrlarga diqqatini qaratdi. "Qadimiy diyorumizda asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgani, bu esa bag'rikenglik tinchlikparvarlik, sahovat va mehr-oqibatlilik fazilatlarini bilan, ajralib turadigan xalqimizning o'ziga xos mentalitetini shakllanishda muhim ahamiyat kasb etgani shubhasiz"²⁹.

Bu festival har ikki yilda o'tkazib turiladigan an'anaviy bayramga aylandi. Ana shu tadbirlarda arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys madaniy markazlaridan professional hamda badiiy havaskorlik san'atkorlarining chiqishlarni xalqimiz xursandchilik bilan ma'qullagani bejiz emas. Chunki, har bir madaniyat markazlarini sahna kompozitsiyalari namoyish etishi o'sha millatni tom ma'nodagi porloq istiqbolini, yashab turgan zamin uning uchun begona emasligini, aksincha shu yurt-mana shu tuproq, Vatan taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmatqilmoqda.

Bu festivalni yakunlovchi qismi mustaqillik bayrami arafasida, (20- avgust) xalqlar do'stligi saroyida hamda bayram kuni mustaqillik maydonida o'tkazilganligi tarixiy hodisadir.

Ya'ni O'zbekistonda yashaydigan qardosh halqlari ijodkorlari bilan uchrashuvlar ularning ijodiga bag'ishlangan kechalar uyushtirish ham milliy madaniy markazining

²⁹ Islom Karimov. . Vatan va xalq mangu qoladi. T: O'zbekiston . 2010.-B.43-44.

odat tusiga kirib qolgan amaliy tadbirlardan biridir. Keyingi yillarda milliy madaniy markazining ko‘magida O‘zbekistonda Qozog‘iston kunlari o‘tkazilishi, bu ikki halqni yanada yaqinlashtirmokda va qarindoshlik aloqalarini ravnaq topishiga katta hissa qo‘shyapti. Zero, Islom Karimov ta’kidlaganlaridek “Qozoq xalqi bilan do‘stligimiz quyoshi ming yillar qaridan nur sochdi”.

Rus madaniyat markazi Rossiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda buyuk rus shoiri S.YA.Eseninni tug‘ilgan kunini 100 yilligi hamda A.Pushkin tavalludini 200 yilligiga bag‘ishlangan kechalar uyushtirilganligi tolerantlikni takomillashuvi vositadir. Baynalmilal madaniyat markazida A.S.Pushkin hayotiga bag‘ishlab tashkil qilingan ko‘rgazmada o‘zbek xalqini buyuk rus shoiriga bo‘lgan hurmati naqadar cheksiz ekanligini yorqin namoyishidir. Bu tadbirda o‘zbek xalqining nechog‘lik buyuk va mehmondo‘stligi tarannumetildi^{30,1}

Qozoq milliy madaniy markazi tomonidan qozoqlarning buyuk shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqlol uchun kurashgan Turor Risqulov, Sultonbek Xo‘janovlar 100 yilligi qirg‘iz milliy madaniy markazi yordamida qirgizlarning milliy faxri va jahon xalq og‘zaki ijodining eng yirik asarlardan biri "Manas" eposining 1000 yilligi³¹, tatar milliy madaniyat markazi tatarlarni milliy hosil bayrami, "Sabantoy"milliy madaniyatlarining o‘zaro do‘stlik bayramiga aylandi³². Tatarlarning bu bayrami Oltin O‘rda xonligida yashab hayot kechirgan tatar dehqonlarini, ya’ni "Sabonchi" larni bayrami edi³³. Farg‘ona viloyatida faoliyat olib borayotgan tatar milliy madaniy markazi 2008-2011 yillari iyun oyida bu bayramni nishonlaganlarida viloyatning barcha madaniy markazlari ishtirok etdi. Bu bayram o‘zbeklarning "Mehrixon" bayramiga o‘xshab ketadi. Bulardan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, bu ayyom 14 asrdan oshiqroq tarixga ega bo‘lib, hozirgacha tatarlar bu bayramni nishonlab kelishadi³⁴.

Bu sanalar o‘z navbatida o‘zbeklarning ham katta bayramlariga aylanib ulgurdi. Bular yuzasidan milliy madaniy markazlar viloyat xokimligi, Fanlar akademiyasi

³⁰ /Xalq so‘zi. Ivanov A.Kuch qudratimiz ahillik va hamjihatlikda. 2007, 23 yanvar

³¹ O‘zbekistonni yangi tarixi. 3 tom. T.yu; "SHarq". 2000. -B.275.

³² O‘zbekistonni yangi tarixi. 3 tom. T.yu; "SHarq". 2000. -B.275.

³³ Tatar milliy madaniy markaz arxividan. 2008. № 47

³⁴ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Qomus bosh taxririya. T.; 1997.

boshchiligida bir qator oliy o'quv yurtlarida, rejali ilmiy amaliy konferensiya va seminarlar o'tkazdilar.

O'zbekiston, Ukraina, Armaniston milliy madaniy markazlarining ishtiroki bilan o'tkazilgan uchrashuvda arman ziyolilarini O'zbekistonda yashayotgan yosh arman bolalariga Armaniston hamda arman halqining tarixini va madaniyatini o'qitish va o'rgatish maqsadida tashkil etilgan yakshanba maktablarini borib ko'rishdi³⁵.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda istiqomat qiluvchi milliy guruhlar o'z salohiyatini hamda milliy an'ana, urf - odatlari va milliy madaniyat xazinalarini keng namoyish etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. SHuningdek, o'zaro yig'inlarni majlislar, rasmiy uchrashuvlar xamda ilmiy amaliy madaniy konferensiyalarni o'z xohishlari va o'zlariga qulay deb hisoblagan tilda o'tkazishadi. Milliy madaniy markazlar ichida ilk tashkil topgani Koreys milliy-madaniy markazi bo'lsa, katta imkoniyatlarga ega bo'lgani bu Rus milliy madaniy markazidir. Bu markazning faoliyati e'tiborga loyiqdir. Masalan bu markaz atoqli rus shoirlarini yubileylarini o'tkazadi va bu kechalarda "O'zbekiston - umumiy uyimiz" mavzuida davra suhbatlari muntazam tashkil etiladi³⁶.

Belorus madaniy markazi rus va ukrain madaniy markazlari bilan hamkorlikda slovyan yozuvi bayramini o'tkazishdi hamda bu kechada "Taqdirimiz - yagona" shiori ostida kichik davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Pravoslav diniy bayramlari, xalq ashulalari, milliy bayramlari sharqiy slovyan millatining O'zbekistondagi madaniy ma'naviy hayotida slovyanlarga yangi ma'no mazmun hamda yo'nalish berdi³⁷.

Koreys milliy madaniy markazi faoliyati o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki Koreyslarning O'zbekistondagi umumiy soni ikki yuz ming atrofida (1999 yil aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra) O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Koreya Respublikasi bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi. SHulardan biri Andijon viloyati Asaka shahridagi "DEU" avtomobil zavodi hamda Farg'ona shahridagi

³⁵ Tulenov J, G'ofurov Z. Millatlararo hamjihatlik davlatimiz boyligi. T.; "O'zbekiston" 1999. -B.15.

³⁶ O'zbekistonni yangi tarixi. 3 tom. T.; "SHark". 2000. -B.301

³⁷ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.; "O'zbekiston". 1997. -B.280.

"Kobul Tuytepa Tekstil" zavodlari va boshqa kichikroq tashkilotlarni aytishimiz mumkin. Tarixga nazar tashlasak millataro do'stlik rishtalari vatan uchun taxlikali bo'lgan yillarda o'zining asl mohiyatini ko'rsatgan. Koreys xalqining sobiq ittifoq xalqlari, jumladan o'zbek xalqi bilan bir tan va bir jon bo'lib mehnat qilgani tarixdan ma'lum. 1989 yil 30 iyun Farg'ona viloyati koreys jamoatchiligining konfrensiyasida, Koreys milliy markazini tuzish haqidagi taklifi kiritildi va tashkil etildi. Bu O'zbekistondagi birinchi milliy markaz bo'ldi. Bu g'oyaning tashabbuskori Rev Mir Lyandir. Natijada yo'qolib borayotgan milliy til, madaniyat, urf odatlarini tiklash yo'lida dastlabki qadam qo'yildi.

Markaz Respublikadagi Koreyslarni milliy an'analarini tiklashda, hamda xalq o'rtasidagi muammolarni o'rganish va hal qilishda yordam berish yo'lida faoliyat olib bormoqda. 1994 yil 5 iyunda Koreya Prezidenti Kim En Saminning O'zbekistonga taashrifi koreys va o'zbek xalqi o'rtasidagi munosabatlarini rivojlanishida muhim voqea bo'ldi uning O'zbekistonga qilgan tashrifi chog'ida I.A.Karimov mamlakatimizda koreys xalqini kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishdagi hissasini yuqori baholadi. Farg'onada Koreys milliy madaniy markazini tuzish va faoliyat olib borishi uchun qarori hamda nizom ishlabchiqilgan.

Koreys milliy madaniy markazining nizomi shundan iborat:

-koreyslarni muammosini o'rganish va o'z vaqtida xal qilishda mahalliy hokimiyatga yordam berish;

-milliy madaniyat va ona tilini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida. Koreys aholisi o'rtasida madaniy, ma'rifiy ishlarni olibborish;

-Farg'onada yashovchi koreys millatiga mansubfuqarolarnifoydali ijtimoiy mehnatga jalb etish;

-yosh avlodni, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan tarbiyalash va boshqa masalalar berilgan;

-milliy va umum davlat madaniyatlarining muvofiqlashtirishi maqsadida milliy munosabatlarni yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Koreyslar hayotidagi yorqin voqea 1990 yil 18-19mayda Moskvada bo'lib o'tgan birinchi umumittifoq Koreyslar s'ezdi bo'ldi. Bu yig'ilishda mamlakatning

barcha madaniy markazlardan delegatsiyalar kelishgan edi. SHu bilan birga SHimoliy va Janubiy Koreyadan ham vakillar kelgan bo‘lib, bizning yurtdan ham besh vakil brogan edi. Bukonferensiyada koreyslarning muammolari, o‘quvchilarga koreys tilidagi qo‘llanmalar chiqarish va boshqa masalalar ko‘rib chiqilgan O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zbeklar qatorida koreys millatiga mansub qatag‘on qurbonlarining nomlari ham oqlandi. Koreys madaniy markazining asosiy maqsadi: ona tilini yurtdan yiroqdagilarga o‘rgatish va qadimiy madaniyatini tiklash va urf-odatlarini o‘rgatishdan iboratdir. SHular asosida Koreys milliy madaniy markazlarining O‘zbekiston assotsiatsiyasi tuzilib o‘z faoliyatini olib bormokda. Assotsiatsiyasining harakati bilan foto ko‘rgazma tashkil etildi va "Koreya-O‘zbekistonda", "Koreyslar O‘zbekistonda" mavzuiga bag‘ishlangan kitoblar, risolalar, maqolalar, to‘plamlar, Koreya bilan bogliq turli yubileylar, yozuvchilar, siyosiy arboblardan, madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar hamda maqolalar chop etilmoqda. Assotsiatsiyaning homiyligida O‘zbekistonning turli shahar va viloyatlardagi maktab, litsey, gimnaziyalarda til o‘rganish kurslari ochilgan. Misol uchun Farg‘ona shahridagi “Parvoz” litseyida va Qirguli tumanidagi maktablarda til o‘rganish kurslari ochilgan. Natijada o‘quvchi yoshlarni 2 mamlakat tarixiga qiziqish kuchayib Koreya-O‘zbekiston aloqalarining rivojlanishiga samarali ta‘sir qilmoqda. O‘qish va ishga boradiganlarni intilishlari ortib bormokda.

Farg‘ona shahrida 1993 yil yanvarida Koreyslar o‘zlarining etnografik muzeyini ochgan bo‘lib, u erda milliy urf - odatlaridan namunalar, an‘analari va milliy kiyimlarini qanday tikilishi haqida to‘liq ma‘lumotlar jamlangan. Bu muzeyni ochilishida Revmir Lyan bilan birga pedagogika fanlar nomzodi professor ushbu kitob muallifi Turg‘unoy Egamberdieva ham faol qatnashdi. Bu ham bo‘lsa ularga bo‘lgan hurmatdan bir nishona. Kim Rimma Vasilievga bu muzey uchun Janubiy va SHimoliy Koreyadan eksponatlar to‘plab olib kelgan. Viloyat O‘lkashunoslik muzeyida koreys xalqining turmush tarzi boy tarixiy merosi yurtimizda fidokorona mehnati natijasida obro‘ qozongan. Koreyslar to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Koreys milliy madaniy markazi ko‘magida O‘zbekiston Koreya o‘rtasida yaxshi

hamkorliklar o'rnatilgan bo'lib, u iqtisodiy-ijtimoiy ma'naviy madaniy sohalarda o'zining samarasini ko'rsatmokka.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatadigan ko'plab mamlakatlarni milliy madaniy markazlari xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida turli xalqlar va millatlarni o'zaro iqtisodiy va madaniy yaqinlashuvi va rivojlanishida munosib o'rin egallaydi. Bunga misol mustaqilligimizning dastlabki yillarida tashkil topgan nemis xalqining milliy madaniy merosini keltirishimiz mumkin. 2010 yilda nemislarning Farg'ona madaniy merosining tuzilganiga 20 yil to'ldi, shu munosabati bilan 22-24 aprel kunlari Farg'onada nemislarning milliy madaniy markazi ilmiy an'anaviy konferensiya o'tkazdi. Unda Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijonda istiqomat qiluvchi nemis millati vakillari o'zlarining maruzalari bilan ishtirok etdi. Farg'ona milliy madaniy markazi "Tiklanish" deb nomlanib, uning vazifasi O'zbekistondagi nemislarni qo'llab-quvvatlash, nemis tili va madaniyatini targ'ib qilish tarixiy merosini saqlash, asrab avaylash madaniy-tarbiyaviy, badiiy ijodiy ishlar olib borishdan iborat. Ayniqsa bu madaniy markaz Farg'onada yashab ilm-fan madaniyat sohaslarida buyuk tadqiqotlari amalga oshirgan olimlarining ilmiy-amaliy merosini o'rganish va targ'ib qilishlari katta etibor beradi. Tarix, geografiya, irrigatsiya, botanika, biologiya va boshqa fanlar taraqqiyotimizga buyuk hissa qo'shgan V.Bortold, A.Medendorov, T. Ortindorof, R. SHreder kabi nemis olimlarining yurtimizda shuningdek Farg'ona hududida ilm-fan va milliy madaniyatni rivojidagi o'rni bo'lgan. Nemislar Turkiston o'lkasida jumladan Farg'ona vodiysida XVII-XVIII asrladayoq paydo bo'lgan (Peterburg Akademiyasi orqali) bo'lgan va yuqori davlat lavozimlarida ishlagan, ilm fan, maorif, madaniyat sohalari rivojiga katta hissa qo'shgan. Hozirgi kunda nemis milliy madaniyat markazi-Videregubok o'lkadagi nemis aholisini mahalliy aholi bilan o'zaro do'stlik hamjihatlikka moslangan o'zaro munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish yo'lida samarali ijobiy ishlarni amalga oshirib boryapti. O'zbekiston Respublikasidagi bu madaniyat markazlari, o'zbek xalqini hamda boshqa millatlarni milliy o'zligini anglashga va ma'naviy qayta tiklanishning o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilanishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashuvi demokratik jarayonlarning

chuqurlashuvining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasini jahon hamjamiyatiga qo‘shilishiga shart-sharoit yaratib beradi³⁸.¹ O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning bu fikri Respublikamizda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlariga bo‘lgan ishonchni bildiradi. Axir bu markazlar tufayli ko‘p millatli O‘zbekiston davlati dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin oldi. Xalqaro tashkilotlar esa davlatimizning mustaqilligini va millatimiz xalqiga hurmatini bildirishdi, diplomatic aloqalar o‘rnatildi va rivojlanish sari olg‘a qadam bosdi, bu ko‘p millatli diyorumiz naqadar tinch ahil-inoq yashayotganini bildiradi³⁹. SHuningdek eng muhim milliy madaniy markazlar O‘zbekistonda millatlarni har tomonlama yaqinlashuviga millatlar taraqqiyoti va gullab yashnashiga asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Respublika baynalmilal merosining direktori Nuriddin Muxsimazimovning yozishicha bugungi kunda millatlar va xalqlarning(130 ta) o‘ziga xos madaniyati, urf odatlari va an‘analarini asrab avaylash va rivojlantirishga qaratilgan milliy madaniy markazlarning soni O‘zbekistonda 150 taga etgan. Ular nufuzi jihatidan yuqori jamoat markazlariga, ta‘lim- tarbiya maskanlariga aylangan, madaniy ma‘rifiy-maorif, ma‘naviy tarbiyaviy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirib mamlakatimizda millatlararo do‘stlik, tinchlik, mehr-oqibat o‘zaro birdamlik munosabatlarini salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Millatlarning istiqbolini ularning o‘zaro yaqinlashuvisiz ularga istiqbol va‘da qilish qiyin. CHunki, bu jarayon ijtimoiy xayotni barcha tomonlarini qamrab olgan millatlar ongini o‘z-o‘zini anglashini milliy o‘zligi va milliy iftixorini o‘sishi, ma‘naviyatni yuksaltirishi milliy mafkurasinishakllanishi hamda rivojlanishi uchun asos yaratadi. SHu tufayli O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov diqqatimizni masalaning tub mohiyatiga qaratadi, “Mintaqada unga kiradigan ayrim davlatlarda ham insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tartibga

³⁸ Karimov I.A.. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.; "O‘zbekiston", 1997.- B.172.

³⁹ I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. T.; "O‘zbekiston", 1999. -B.92

solinishini istaymiz”⁴⁰.

Millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy xavfsizlikka putur etkazishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatlarni oldini olish uchun qo‘ldagita moyillarga amal qilmog‘imiz kerak:

-davlatning etnik siyosati huquqlarining himoya qilishning ustivor bo‘lishiga asoslanishi darkor, shuningdek, milliy ozchilikning ham kamsitilmasligi shart;

-davlatning etnik siyosatidagi bosh yo‘l millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda xal qiladigan usullarga asoslanishi lozim;

-jamiyatimizning bozor munosabatlariga asoslanadigan iqtisodiy taraqqiyoti Respublikamizda yashayotgan barcha millatlarning manfaatlariga mos bo‘lmog‘i kerak⁴¹.

Millatlararo hamdo‘stlik, tinchlik totuvlik mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan eng kattayutugimizdir.

Ushbu fikrni O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov g‘oyat teran va mazmunli bayon qilib bergan. Unda, Qoraqalpog‘iston davlatimiz jamiyatimiz hayotida hududlarimiz o‘rtasida boshqalar bilan solishtirib bo‘lmaydigan alohida o‘rin va huquqqa ega. Biz bu huquqni aslo unutmaymiz va bu boradagi ishlarni joy-joyiga qo‘yishimiz darkor. CHunki Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘p millatli O‘zbekiston davlati va jamiyatida o‘ziga xos o‘ringa molik.

Bizning milliy munosabatlarimiz juda yaqin bo‘lganida qoraqalpoq xalqi o‘zining qadimiy tarixi urf odatlari an‘analari, tili va madaniyatiga mos jihatlar bilan ajralib turadi, deyiladi⁴².

Prezidentimiz oldiga qo‘ygan vazifani amalga oshirishda Qoraqalpog‘iston va respublika madaniy markazining roli katta. Toshkentda Qoraqalpoq milliy madaniy markazi hamkorligida Qoraqalpog‘iston madaniyat kunlarini o‘tkazilishi o‘zbek xalqining shu millatga bo‘lgan chuqur hurmati ifodasidir.

O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi huzurida qozoq adabiyoti kengashi, Jizzax

⁴⁰ I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.; "O‘zbekiston", 1997 yil — B. 78.

⁴¹ Tulenov J. G‘ofurov 3. Millatlararo hamjihatlik davlatimiz boyligi. -T.; "O‘zbekiston",1999.-B.18-19.

⁴² Islom Karimov. Ozod obod Vatan erkin va farovon xayot provart maqsadimiz. T:O‘zbekiston 2000.- B.102- 103.

viloyatida "Kokteli" qozoq teatrini tashkil etilganligi hamda qozoq tilida "Nurli jo'l" Respublika gazetasi nashr etilishi¹ ikki millat madaniyatining yaqinlashuvi va o'zaro bayramga hizmat qildi.

Halqimizning yana bir ijobiy hususiyati boshqa millat vakillariga bo'lgan munosabatda muqaddas islom diniga bo'lgan xurmati hamda uning g'oyalarini ular foydasiga talqin qilishdir. Oddiy musulmon inson bilan so'zlashsangiz uning fikr yurtishiga razm soling, ma'lum bo'ladi. Axir u ham xudo yaratgan bandaku, deb o'ylab qolamiz. Birini rus, birini qirg'iz yana birini xitoylik etib yaratdi va er yuziga tarqatdi. Ana shu sababli ko'p millatli O'zbekiston davlatida diniy erkinlik berildi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham to'xtalib o'tilgan.

Misol uchun Farg'ona shahrida Koreys milliy madaniy markazini Xristian evangar "Nadejda" cherkovi bor. Bu dastlab hususiy uylarda, maktab sport zallarida faoliyat yuritgan. Vijdon erkinligi tufayli bu markaz alohida binoga ega bo'ldi. Hozirgi kunda bu erda yoshlar va bolalar xori musiqiy ansambli o'z faoliyatini olib bormoqda.

Bular bilan birga koreys yoshlaridan iborat Ariyan musiqa ansambli o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, bunga nafaqadagi koreyslar tashabbuskor bo'lishdi. Axir hozirgi kunda ko'plab an'analarini yoshlar unutib qo'yishmoqsa. SHuning uchun bolalar folklor ansambli tashkil etilgan bo'lib, u turli bayram dasturlarida ishtirok etib kelmokda. Bu ansamblga Pxenyan teatrining mashhur raqqosasi Li San Si rahbarlik qiladi.

SHubhasiz, turli millatlar mavjud bo'lgan sharoitda, ularni qanday g'oyalar maqsadlar birlashtirib turishi muhim o'rin tutadi. Masalan, millatlararo totuvlik g'oyasini eng ustuvor maqsad deb yondoshishdan uning asl maqsadini bilib olish mumkin. Millatlararo totuvlik, ahillik, hamjihatlikdan hamma manfaatdor, chunki ular barcha millatlar vakillarining manfaatlariga to'g'ri keladi. SHuning uchun, millatlararo totuvlik g'oyasi bir mamlakatda yashab, umumiy maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub bo'lgan kishilar o'rtasidagi hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Ammo ana shu g'oyaning maqsad va

muddoasini hamma ham bir xilda tushunayapti deb bo'lmaydi. Demak, joylarda milliy istiqlol g'oyasini o'rganishga, o'rgatishga alohida e'tibor berish ehtiyoji doimo mavjud bo'ladi. Chunki, biron bir tuman, shahar va viloyat yo'qki, faqat bir millatli bo'lsin. Hayotimiz ko'p millatlilik omili bilan hamnafas ekan, turli millat vakillari birgalikda mehnat qilayotgan ekanlar, bu masala doimo e'tiborda bo'lishi lozim.

O'zbekistonning tanlagan taraqqiyot yo'li, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarini, har bir fuqaro oldida turgan umumiy maqsad deyish mumkin. Erkin va farovon hayot, ozod va obod Vatan qurish g'oyasi milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi sifatida, unda har bir fuqaroning erkinligi, maqsadi, huquq va manfaatlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan "Vatan ravnaqi", "Yurt tinchligi", "Xalq farovonligi", "Kamil inson", "Ijtimoiy hamkorlik", "Diniy bag'rikenglik" g'oyalarining maqsadi ham tushunarli. SHunday g'oyalar asosida o'zaro hamjihat bo'lgan, birgalikda mehnat qilayotgan, ta'lim-tarbiya olayotgan har bir kishidan yomon maqsadlarni, g'arazli niyatlarni kutib bo'lmaydi. Biz qaysi millatga mansub bo'lmaylik, yagona Vatanda yashaymiz. Milliy istiqlol g'oyasi ana shunga da'vat etadi va o'rgatadi. U qancha mustahkam bo'lsa, mamlakat shuncha kuchli bo'ladi.

Biz bugun ochiq fuqarolik jamiyatda yashayapmiz. Qolaversa insonlar ham jamiyatlar ham g'oyalar ham mafkuralar ham xilma-xil. Millatlararo totuvlikni afzal ko'rib yashab, tinchlik va barqarorlikka shukronalar aytish kerak. Lekin, boshqa g'oyalar kirib kelmayapti, deb bo'lmaydi. Buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, millatlarni bir-biriga gij-gijlash orqali ular o'rtasida nizo, nifoq urug'ini sochish, milliy kamsitish ko'rinishlari, bir millatni boshqa millatdan ustun qo'yishga urinish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar milliy istiqlol g'oyasi bilan mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ayni paytda, har bir xalq (etnos)ga mansub bo'lgan fuqaro undan ogoh bo'lishi, unga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlashi, bunday nosog'lom g'oyalarni ta'siridan xoli bo'lishi zarur.

(материаллар “эски”). Сноскалар тўғри қўйилмаган

2.2.Yoshlar dunyoqarashida diniy bag'rikenglikni shakllantirish asoslari va usullari

O'zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimida ma'naviy-marifiy faoliyatni yuksaltirish va uning samaradorligini oshirib borish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga kelib mazkur ishlar yanada rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida 2017 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»⁴³gi qarori qabul qilinganligini keltirish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, amalga oshirilayotgan mazkur ishlar natijasi o'larok, hozirda aksariyat yoshlarimizning dunyoqarashi, siyosiy va intellektual salohiyati ancha o'sdi. Ularda demokratiya, qadriyatlar, tolerantlik madaniyati yuksaldi. Lekin shunga qaramay hozirda ayrim yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yuksaltirish va ularda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish masalasida xali ham bajarilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. SHuning uchun ham davlatimiz rahbari SH.Mirziyoev o'zining «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzasida ta'lim va ilm-fan soxasi yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimiz kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini alohida e'tibor qaratib, ushbu soxada amalga oshiriladigan quyidagi vazifalarga urgu berdi:

Birinchi vazifa-maktabgacha ta'lim soxasida 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustaxkamlandi. Sababi ushbu soxasida bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi.SHuningdek, bu yo'nalishdagi murakkab vazifalar-tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan xolda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli soxalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hisoblanadi.

⁴³Узбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий- маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва сохани ривожлантиришни янги боскичга кутариш тугрисида”ги карори /”Кишлок хаёти” 2017-йил 29 июльдаги №90 (8797)-сон.

Ikkinchi vazifa-umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'lik'. Bu boradagi quyidagi asosiy muammolar ajratib ko'rsatildi.

-zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas;

-bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli vato'liq xolda yechilgani yo'q.

-pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.

Uchinchi vazifa-ta'lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soxa va har bir xududning zarur mutaxassislarga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir.

To'rtinchi vazifa- nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish. Bu o'rinda ilmiy muassasalar moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida sezilarli ravishda mustaxkamlash, akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Beshinchi vazifa-kitoblarni chop etishva tarqatishdagi muammolarni xal qilishdir. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va axoli o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda.

SHu o'rinda asosiy vazifa sifatida kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarning kitobga bo'lgan muxabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirish masalalari tilga olindi"⁴⁴.

⁴⁴Мирзиев Ш.М. Танкидий тахлил, катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир рахбар фаолиятининг кундалик коидаси булиши керак. Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мулжалланган иктисодий дастурининг энг мухим устувор йуналишларига багишланган Вазирлар Махкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маърузаси. 16. 01. 2017.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ushbu vazifalar milliy g'oya va tolerantlik madaniyatini targ'ib qilish jarayonida yangi, innovatsion texnologiyalar, usullar va vositalarni qo'llashni talab etadi.

Ta'kidlash kerakki, milliy g'oya va tolerantlik targ'ibotida yangi texnologiyalarni qo'llashda jahonning bir qator davlatlarida to'plangan ilg'or tajriba va innovatsiyalardan foydalanish mumkin. Xususan, jahonda keng tarqalgan «to'rt qadamli» universal modeldan foydalansa bo'ladi. Uning asosiy jihatlari quyidagicha:

1-qadam: Muammoning qo'yilishi. Targ'ibotda singdirilishi zarur bo'lgan g'oyalar belgilab olinadi.

2-qadam: Rejalashtirish va dasturlashtirish. Bu bosqich uzoq muddatga mo'ljallangan kommunikativ (muloqot) vazifalar strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

3-qadam: Muloqotga kirishish. Targ'ibotni samarali tashkil etish uchun asosiy kommunikativ vazifalar rejalashtirilgan va aniqmaqsadlar sari yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Uchinchi bosqich o'z ichiga quyidagi elementlarni qamrab oladi: xarakat strategiyasi, kommunikativ strategiya dasturni amalga oshirish rejasi.

4-qadam: Yakuniy xulosalar yasash. Yakuniy xulosalar yasash ikki yo'nalishda: baholash mezonini ishlab chiqish va qayta aloqa kanalidan olingan ma'lumotlarni o'rganish shaklida amalga oshiriladi. Baholash mezonini ishlab chiqishda kishilarga singdirilgan g'oya ularga qay darajada ta'sir etganligini aniklashning ob'ektiv mezonlari belgilansa, qayta aloqa kanalidan olingan materiallarni o'rganishda berilgan axborotlar soni, unga nisbatan javob reaksiyasi singdirilgan g'oya natijasida kishilar o'z harakatini qay darajada o'zgartirganliklarini tahlil qilinadi, ularning mafkuraviy ta'sirga javob reaksiyasi o'rganiladi. (шу модел асосида мавзуни очинг, сиздан моделни мазмуни сўралагани йўқ))

Milliy g'oya va tolerantlik targ'ibotida yangi texnologiyalardan foydalanish auditoriyani segmentlashni (turkumlarga ajratish) taqozo etadi. Auditoriyani segmentlash quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1) Geografik makonga ko'ra. Kishilarning yashash joyi, mintaqada joylashgan o'zni bir-biridan farqqilishi tufayli milliy istiklol g'oyasini singdirishda ularning yashash joyiga e'tiborni qaratish lozim. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining qarashlari, urf-odatlari Toshkent shaxri yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi axolisining qarashlari va urf-odatlaridan ancha farqqiladi.

2) Demografik omilga ko'ra. Kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli bir-biridan farqqilgani bois ularning qarashlarida va qadriyatlarida ham muayyan tafovutlarni uchratish mumkin.

3) Psixologik omilga ko'ra. Kishilarning ruhiy holati ancha o'zgaruvchan bo'lsa-da, bu omil mafkura targ'ibotida katta axamiyat kasb etadi.

4) Ijtimoiy maqomiga ko'ra. Kishilarning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi ularning axborotni qay darajada qabul qilishlariga, bu axborotga munosabat bildirishlariga sezilarli ta'sir kursatadi.

5) Obro'-e'tiboriga ko'ra. Targ'ibotda yangi texnolaogiyalarni qo'llashda fikr yetakchilaridan foydalanish axborot yetkazishning eng samarali usullaaridan biri xisoblanadi. SHu bois kishilarga ta'sir ko'rsatishda ularning obro'-e'tiborli kishilarga bulgan ishonchidan moxirona foydalanish talab etiladi.

6) A'zolikka ko'ra. Kishilar u yoki bu partiyaning, jamoat birlashmasining a'zosi ekanligi mafkura targ'ibotida qo'l keluvchi omil sanaladi. Odatda, bitta guruhga mansub kishilarning qarashlarida umumiylik, o'xshashlik bo'ladi. Bu esa targ'ibotni bir qadar yengillashtirishga xizmat qiladi.

Qarorlar qabul qilishdagi ishtirokiga ko'ra. Kishilarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroklari va faolliklari ularning axborotni qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatgani bois bu omil milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotida hisobga olinishi lozim. (шу модел асосида мавзуни очинг, сиздан моделни мазмуни сўралагани йўқ))

Milliy g'oya va tolerantlik targ'ibotida auditoriyani segmentlash, kishilarni alohida guruhlariga bo'lib ta'sir ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oya va tolerantlik targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan birizimdan targ'ibot qilishdir. Inson unga ta'sir o'tkazilayotganini

sezmasligi lozim. Aslida, targ'ibot davomida mafkura so'zining ishlatilishi ham shart emas. Umuman, tolerantlik targ'ibotida masalaning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- 1) oldimizga quyilgan maqsadlarga erishishdan har birimiz shaxsan manfaatdor ekanligimizga kishilarni ishontirish;
- 2) kelajagimizni ko'z oldimizga keltirish imkonini beradigan, ertangi kunimiz qanday bo'lishini ko'rsatadigan materiallar tayyorlash;
- 3) dolzarb qadriyatlarni singdirish maqsadida jamoatchilik fikriga shu qadriyatlarni jozibali qilib yetkazish;
- 4) ommaviy axborot vositalaridan maorif tarqatish tizimidan insonlarni aqliy jihatdan boyitish quroli sifatida mohirona foydalanish;
- 5) insonlarning erkin fikrlashini rag'batlantirish, ularni o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatish orqali mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash;
- 6) taraqqiyotimiz yo'lida gov bo'layotgan illatlarni fosh etish va tanqid qilish yo'li bilan ularni samarali «davolash»;
- 7) ommaviy axborot vositalaridan haqiqat ko'zgusi sifatida foydalanish orqali insonlarning ularga ishonchini kuchaytirish;
- 8) yaqin o'tmishimizda sodir bo'lgan yorqin voqealarga bag'ishlangan xronikal filmlarni yaratish yo'li bilan yaxshi va yomon kunlarimizni bot-bot eslatib turish;
- 9) insonlarda chuqur taassurot qoldirish maqsadida badiiy obrazlar orqali tushuntirish.

Bugungi kunda dunyo chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Iqtisodiy integratsiyalashuv, globallasuv va o'zaro bog'liqlikning kuchayishi aholining kuchli va keng qamrovli migratsiyasi, jamiyat sotsial tuzilishidagi o'zgarishlarning chuqurlashuvi tezlik bilan amalga oshmoqda. Ana shunday murakkab o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda jahonning turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar ham saqlanib, ma'lum darajada rivojlanib bormoqda. Milliy, etnik, millatlararo munosabatlar va muammolar hamda ularning echilishidagi vazifalar bor bo'lib, ularni ilgari qo'llanilgan eski vositalar, usullar bilan hal etib bo'lmaydi. Hayot

milliy masalaga yangicha yondoshishni va eski usullardan qat'iyon voz kechishni kun tartibiga qo'yimoqda. Bugungi kunda millatlararo munosabatlarning nisbatan barqaror va turli ko'rinishdagi tahdidlar hamda inqirozlarga bardosh beruvchi tizimini yaratish, umuman er yuzida tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida tolerantlik tamoyillari va g'oyalarining tutgan o'rni beqiyos bo'lib, xalqimizga xos azaliy tolerantlik xususiyatiga munosabat mustaqillik yillarida yanada rivojlandi.

Tolerantlik bu «lotincha-tolerantia» -sabrlik, chidamlilik, o'zga hayot tarzi nuqtai nazaridan, g'oyalar, e'tiqodlarga toqatlilik va bag'rikenglikdir. Tolerantlik kungil holati bo'lib, har bir kishini bu holatga erishmog'i albatta qiyin kechadi. Tolerantlik bu xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Yoshlarning tolerantlik, sabrlik, toqatlilik, chidamlilik sifati va fazilatiga ega bo'lmasdan turib millat, madaniyat va boshqa din odamlari bilan samimiy beg'araz munosabatda, muomalada hamda muloqotda bo'lishi murakkabdir. Chunki tolerantlik-yon berish, andisha yoki xushomad emas, balki tolerantlik eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatidir. Tolerantlik ko'p qirrali va murakkab tizim ifodasi bo'lib, ayni chog'da yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy munosabatlar xosilasi sifatida jamiyatga xos mentalitet, insoniy mehr-oqibat, mehr-muhabbat, o'zaro yordam, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik, tinchlik, osoyishtalik, bag'rikenglik kabi munosabatlarni aks ettiradi.

Kelajak avlodning tarbiyasidagi eng asosiy jihat uning ma'naviy sog'lomligidir. SHuning uchun ham ta'lim-tarbiyada tolerantlik masalasini keng yoritish muhim o'rinda turibdi. Bu xaqda professor R.H.Murtazaeva tolerantlikning yoshlar tarbiyasidagi tutgan o'rniga to'xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: "Hamma joyda va barcha sohada tolerantlik muhitini yaratish shubhasiz oson vazifa emas. Tarbiya-toqatsizlikning oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi. SHu sababli yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashni hozir birinchi darajali vazifa deb hisoblamoq kerak. Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ko'pgina davlat va jamiyat muassasalarining umumiy vazifasidir. SHu bilan birga joylarda "Bag'rikenglik markazlari" deb atalgan

ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish ham, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash muammolarini hal etishda muhim o'rinda turadi.”[1] Ayni paytda ta'lim muassasalarida tolerantlik ongini shakllantirish va madaniyatlararo muloqotni o'rgatishga qaratilgan ta'lim dasturlari va texnologiyalarini yaratib hayotga tatbiq etish o'ziga hos o'rinda turadi.

G.Burxanovatolerantlikniyoshlartarbiyasigata'sirixaqidafikryuritibquyidagichai zohberadi: “Tolerantlik fuqarolik jamiyati me'yorlariga mos keluvchi huquqiy ong shakllanishidagi fundamental tushunchadir. SHu sababli, aynan shu sifatni yoshlarda bolalikdan shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish kerak.”[2] Yoshlarga ta'lim-tarbiya orqali shunday fikrni etkazish kerakki, odamlar turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy farovonligi va hokazolarga qaramay o'zaro tengdir. Z.R.Qodirovaning fikricha “Tolerantlik omili yoshlarning o'zgacha fikrlovchi shaxslarga hamda boshqa madaniyatlarga nisbatan qat'iy xatti-harakatlarini oldini olishga asos bo'lib xizmat qiladi.” [3]

Zamonaviytolerantlikvaan'anaviybo'libkelganbag'rikengliktushunchalarima'lu mfarqlargaegabo'lib, harbirio'zo'midaishlatilishilozim. SH.O.Madaevaningta'kidlashicha “Yoshlargaqandaytarbiyaberilsa, ma'naviyatinimabilansug'orilsa, kelajakdabudavlatningijtimoiy, siyosiy, ma'naviyhayotidao'zifodasinitopadi. Yoshlarnitolerantlik, o'zgalarninghuquqvaerkinliklarinihimoyaqilishruhidatarbiyalashningsamaralimexani zmlariniizlabtopishjarayoninijonlantirishzarur.”[4] Bu o'rinda tolerantlik fazilatlarini tarbiyalashda ta'limning insonparvarlashuvi va ijodiy tafakkurning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. E. Karimova “O'zbektolerantligining o'ziga xos xususiyatlari”[5] nomli asarida o'zbek tolerantligining o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, ijtimoiy-siyosiy mohiyati va shakllanish tarixini atroflicha yoritib, tolerantlikning yoshlar tarbiyasida muhim omil ekanligi tahlil etgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikridan kelib chiqib, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ularning tafakkurini o'zgarishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy munosabatlarga moslashishini yanada rivojlantirishni ta'kidlash mumkin.

Tolerantlik omilini yoshlarga singdirishda mahalla, oila, maktab, kollej, akademik litsey, va oliy o'quv yurtlarida bag'rikenglik ruhini mustahkamlash, ro'y-rostlik, bir-biriga e'tibor va birdamlik munosabatlarini vujudga keltirish, doimo tolerantlik fe'l-atvorini shakllantirib yanada rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra kishilik jamiyati rivojlanishi natijasida tolerantlik hamjamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tabora rivojlanib, o'zining mazmunini boyitib boradi. YOshlarda tolerantlik tarbiyasini shakllantirilishi dunyoning yakkalik, alohidalik, ajralganlikdan ko'ra umumiylikka, odamiylikka tomon harakatini kuchaytirib, ularda milliy o'zlikni anglash hamda azaliy bag'ri kenglik tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

SHu bilan birga yoshlarda tolerantlik fazilatini tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari tolerantlik omiliga e'tiborni kuchaytiradi.

Bugungi globallashuv davrida demokratik tamoyillar asosida yangilanayotgan, o'zgarayotgan hayot yoshlarimizni o'ziga xos sinovdan o'tkazmoqda. Jamiyatning kelajagi yoshlar bilan bog'liq va ular taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni kuchayib bormoqda. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati va bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarni qabul qilinishi hamda islohotlarning amalga oshirilishi mustaxkam kuchli tayanch bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida samarali tarzda amalga oshirilib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar jarayoni yoshlarni himoyalanganlik darajasini kuchayishiga hamda mustaxkamlanishiga sabab bo'lmoqda. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini yana bir marotaba uqtirib o'tmoq lozim.

O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga jamiyatning imtiyozli tabaqalaridan biri sifatida g‘amho‘rlik ko‘rsatib, ularga oid davlat siyosatini izchil ro‘yobga chiqarib kelmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonunida[6] ko‘rish mumkin. Qonunda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan:

-yoshlarning millati, ijtimoiy va diniy aloqadorligi, ta‘limi, siyosiy e‘tiqodlaridan qat‘i nazar ularga g‘amho‘rlik qilish;
-ijtimoiy guruhlar nomidan butun yoshlarga, har bir yoshga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[7] asosida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o‘z manfaatlarini amalga oshirish uchun tegishli imkoniyatlarni taqdim etish;
-jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan siyosat va dasturlarni yaratish va amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirokini ta‘minlash;

-yoshlar huquqlari va erkinliklariga amal qilish asosida yoshlarda fuqarolik mas‘uliyati hissini shakllantirish.

SHunday qilib, yoshlarni ijtimoiy hayotda to‘la qonli ishtirok etishi uchun ularga oid muammolarni davlat dasturlari, bir qator farmon va qarorlar chiqarib hal qilishga alohida e‘tibor berila boshlandi.

Islom madaniyatida yoshlar tafakkurini sog‘lom ruhiyat asosida tarbiyalash jarayoniga alohida ahamiyat berilgan. Yoshlarga diniy omil va axloq normalarini singdirishda insonparvarlik va insonni ardoqlash, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, hurfikrlilik va erk, tafakkurga ishonch, mehr-muruvvat, yaxshilik, ona va ayolga ehtirom, diniy bag‘rikenglik, e‘tiqodga nisbatan hurmat, din vakillarini e‘zozlash, diniy merosni qadrlash, diniy obidalarni saqlash, diniy qadriyatlarni avlodlarga o‘tkazish kabi masalalarga maxsus e‘tibor qaratilgan.

Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishdagi islom dini asosiga qurilgan muhim omillar kuyidagilardan iboratdir:

- dunyoviy davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni sivilizatsiya talablari asosida tushuntirish;

- din zamonaviy fuqarolik jamiyatining to'la huquqli tarkibiy qismi ekanligini anglatish;

- sof diniy, xususan islomiy bilimlar, ularni tarixiylik, qiyosiylik va tanqidiylik asosida sharh etishga o'rgatish;

- dinlar tarixini to'g'ri va ilmiy shakllantirish;

- islom dini tarkibidagi tolerantlik tafakkurining evolyusion taraqqiyotini amaliy va nazariy bilimlar majmuasi sifatida singdirish;

- ma'naviy bilimlar majmuasi sirasida diniy-axloqiy bilim, ko'nikma va normalarning o'rnini to'g'ri baholashga o'rgatish.

SHunday qilib, ma'naviy va diniy bag'rikenglik aqidalari va tolerantlik tamoyillari SHarq mutafakkirlarining islom madaniyati tarkibidagi falsafa, fiqh, san'at, tarix, adabiyot kabi ilmlar doirasida rivojlantirilgan, targ'ib va tashviq etilgan, inson tarbiyasi va komilligining muhim jihatlaridan deb sanalgan.

(Ўта тартибсиз . Бошқа режаларга тегишли масалалар ҳам киритилган. Сноскалар нотўғри).